

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma uchun*

UDK: 616-981.42-616-036.2.061.2.(575.1)

**IBRAGIMOV PARVIZJON SOBIROVICH**

**O'ZBEKISTONDA BRUSELLYOZNING EPIDEMIOLOGIK  
XUSUSIYATLARINI O'RGANISH VA EPIDEMIOLOGIK  
NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Mutaxassisligi:**— Gigena (epidemiologiya)

Magistrlik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

**Ilmiy rahbar: t.f.d.,**

**B.E. Tuxtarov**

**Ilmiy maslaxatchi t.f.n., dotsent**

**P.N. Fayziboev**

**Samarqand – 2023**

## MUNDARIJA

<b>QISQARTMA SO‘ZLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>3</b>
<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>

### I Bob. ADABIYOTLAR SHARHI

1.1. Brusellyoz kasalligining tarqalganligi va epidemiologik xususiyatlari .....	8
1.2. Brusellyoz kasalligining hayvonlari orasida tarqalganligining epizootologik xususiyatlari .....	17
1.3. Brusellyoz kasalligida epidemiologik nazorat va profilaktik chora – tadbirlar tizimi .....	26

### II Bob. Materiallar va tadqiqot uslublari

2.1. Izlanish materiallari.....	30
2.2. Tadqiqot uslublari .....	32

### III Bob. Shaxsiy izlanishlar natijalari

3.1. O‘zbekistonda brusellyoz kasalligining 2011 – 2021 yillardagi retrospektiv epidemiologik tahlili .....	34
3.2. Toshkent shahar va Samarqand viloyatida brusellyoz bilan kasallanishni epidemiologik tahlil etish va taqqoslash (2011 – 2021 y.) .....	44
3.3. Brusellyoz bilan kasallangan aholi guruhlari va kasbga bog‘liq kasallanishlarni tahlil etish .....	53
<b>XOTIMA.....</b>	<b>59</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>64</b>
<b>AMALIY TAVSIYALAR .....</b>	<b>65</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>66</b>

## **QISQARTMA SO‘ZLAR RO‘YXATI**

<b>DPM</b>	– Davolash – profilaktika muassasi
<b>JSSA</b>	– Jahon Sog‘liqni Saqlash Assambleyasi
<b>JSST</b>	– Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti
<b>IFA</b>	– Immunoferment analizi
<b>YShH</b>	– Yirik shoxli hayvonlar
<b>QVP</b>	– Qishloq vrachlik punkti
<b>MDH</b>	– Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi
<b>MShH</b>	– Mayda shoxli hayvonlar
<b>MShHV</b>	– Maxsus shaxsiy himoya vositalari
<b>PZR</b>	– Polimeraza zanjirli reaksiyasi
<b>RID</b>	– Agarli geldagi immunodifferensiya reaksiyasi diagnostik usul
<b>RKO‘XYuKMM</b>	– Respublika Karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar muhofazasi markazi
<b>RF</b>	– Rossiya Federatsiyasi
<b>RET</b>	– Retrospektiv epidemiologik tahlil
<b>SEO va JSX</b>	– Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati
<b>San Q va M</b>	– Sanitariya Qoida va Me’yorlari
<b>O‘zR SSV</b>	– O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi
<b>O‘XYuK</b>	– O‘ta xavfli yuqumli kasalliklar
<b>XTSQ</b>	– Xalqaro tibbiy-sanitariya Qoidalari

## KIRISH

### **Mavzuning dolzarbligi.**

Dunyoning qator davlatlarida, shu jumladan respublikamizda ham o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar bo‘yicha murakkab epidemiologik vaziyat saqlanib qolmoqda. Ushbu kasalliklarning o‘ziga xos epidemiologik xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularning o‘ta yuquvchanligi va yuqish yo‘llarining ko‘pligi, epidemiya va pandemiyalar tarzida tarqalishi, tabiiy o‘choqlarning mavjudligi, kasallikning og‘ir klinik shakillarda kechishi va o‘lim xolatlarining yuqoriligi, aksariyat qo‘zg‘atuvchilarning biopatogenligi hamda qo‘zg‘atuvchilarning biologik qurol sifatida qo‘llanilishi mumkinligi, ularga qarshi olib borilayotgan profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarning keng qamrovliligi va murakkabligi bilan boshqa yuqumli kasalliklardan farq qiladi [Амиреев С.А., Грушина Т.А., сирелсон Т.А., Ладный В.И. и др. – 2018, Аракелян П., Бондарева О., Димов С. – 2013].

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, dunyoning yuzdan ortiq davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalar o‘rnatib kelmoqda.

Bugungi kunda aholining migratsiya jarayoni misli ko‘rilmagan darajada rivojlanmoqda. Jahon Sog‘lijni Saqlash Tashkiloti (JSST) tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, faqat 2018-2019 yillarda dunyo bo‘yicha 5 milliarddan ortiq yo‘lovchi aviatransport xizmatidan foydalangan.

Tabiiyki, bu hol, o‘z navbatida, respublikamiz hududiga o‘ta xavfli yuqumli kasalliklarni chetdan kirib kelishi va tarqalish xavfini oshiradi [Shukurova D.B., Rasulov Sh.M. – 2013, Imomaliev U.N., Niyazova T.A., Kosimov O.Sh., Abidov A.B. i dr. – 2017].

Butun Jahon Sog‘likni Saqlash Tashkiloti brusellyozni odamlarga katta iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan zarar keltiruvchi o‘ta havfli yuqumli kasalliklar ro‘yxatiga kiritgan.

Brusellyoz MDX davlatlarining hamma hududlarida ayniqsa Markaziy Osiyo, Shimoliy Kavkaz, Kavkazorti va Rossiya Federatsiyasining ba’zi hududlarida ko‘p uchraydi. O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston

uchun bu kasallik endemik hisoblanadi. Bizning mamlakatimizda kasallanish darajasi 100000 aholiga nisbatan 0,1-0,5 kasallik ko‘rsatkichlari oralig‘ida uchrashi kuzatilgan [Kosimov O.Sh., Abidov A.B. i dr. – 2007]. Respublikamizning turli hududlarida kasallanish ko‘rsatkichi bir xil emas. Chorvachilik bilan shug‘ullanadigan viloyatlarda (Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshq.) kasallanish ko‘rsatkichi boshqa joylarga nisbatan ancha yuqori. Birgina 2009-2010 yillarni oladigan bo‘lsak umumiy kasallanganlar soni 2009 yilda 332 ta, 2010 yilda 454 tani tashkil etgan, shulardan Toshkent shahrida 2009 y. - 14 ta, 2010 y. - 39 ta, Samarqand viloyatida 2009 y. – 67 ta, 2010 y. – 103 ta, Qashqadaryo viloyatida 2009 y. – 83 ta, 2010 y. – 81 ta, Jizzax viloyatida 2009 y. - 77 ta, 2010 y. - 82 ta, Navoiy viloyatida 2009 y. – 16 ta, 2010 y. – 28 ta kasallanish holatlari qayd etilgan.

Kasallanish ko‘rsatkichlarining bunday ko‘tarilishiga sabab epizootik jarayoning faollashuvi va o‘zgarishi, shuningdek qishloq xo‘jaligi hayvonlari orasida kasallikning mavjudligiga, kasallannish darajasiga, xo‘jalikning tashkillashtirilgan tizimiga, chorvachilik xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonining ta’minotiga, sanitariya-veterinariya chora-tadbirlar sifatiga uzviy bog‘liqdir. Shu bilan bir qatorda odamlarning kasallanish darajasi, ayrim kasbdagi guruhlar, sut va sut mahsulotlari, go‘sht va go‘sht mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta’minalashga qaratilgan epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar bilan shug‘illanadigan tashkilotlarning ishlari hajmiga va sifatiga ham bog‘liq [Mantur B.G., Amarnath S.K. – 2018].

Kasallik bilan ko‘proq 18 – 50 yoshgacha bo‘lgan faol mehnatga layoqatli shaxslar betoblanadilar. Lekin keyingi paytda bemorlar salmog‘ida bolalarning ulushi oshib bormoqda.

Brusellyoz – zoonoz, infektion-allergik kasallik bo‘lib, isitma, retikulo-endotelial, yurak qon tomir, nerv, tayanch-harakat va urogenital tizimlarni shikastlanishi bilan kechadi.

Brusellyoz kasb kasalligi hisoblanadi (cho‘ponlar, qassoblar, sut sog‘uvchilar va h.k.). Kasallikning asosiy manbalari qo‘ylar, echkilar, sigirlar,

cho‘chqalardir. Shu bilan bir qatorda infeksiya manbalari otlar, bug‘ular, tuyalar, xachirlar, itlar va mushuklar ham bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunda brusellezga 60 dan ortiq umurtqalilarning sezgir ekanligi aniqlangan.

Aholining va chorva mollarining brusellyoz bilan kasallanishini kamaytirish maqsadida kompleks ravishda infeksiya o‘chog‘ini yo‘qotishga va bartaraf etishga qaratilgan epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o‘tkazishimiz o‘ta muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, brusellyoz kasalligi epidemik jarayonining faollashishi qator omillarga, aholi tomonidan shaxsiy gigiena me’yorlari talablariga va sog‘lom turmush tarzi tamoyillariga rioya etilmasligiga uzviy bog‘liq jarayon ekanligini ta’kidlab o‘tamiz.

Bu hol, mazkur muammoni kasallikning zamonaviy epidemiologik xususiyatlari, laboratoriya tashxisot usullaridan foydalanib batafsil o‘rganishni va olingan ma’lumotlar asosida, ushbu infeksiyaning epidemiologik nazorat tizimini takomillashtirish uchun yangi ilmiy asoslangan sifatli tadbirlarni ishlab chiqarish zaruriyatini belgilab beradi.

### **Tadqiqotning maqsadi:**

Respublika, Toshkent shahri va Samarqand viloyati misolida brusellyoz kasalligining epidemiologik xususiyatlarini o‘rganish va samarali profilaktik tadbirlarini ishlab chiqib, epidemiologik nazoratini takomillashtirish.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

1. Respublika, Toshkent shahri va Samarqand viloyatida brusellyoz bilan kasallanishni retrospektiv epidemiologik tahlil etish.  
(2011-2021 y.)
2. Brusellyoz bilan kasallanganlar ichida kasbga bog‘liq kasallanishning tarqaganligini o‘rganish.
3. Brusellyoz kasalligining epidemiologik xususiyatlarini o‘rganish.

4. Brusellyozning epidemiologik nazoratini va profilaktikasini takomillashtirish.

**Tadqiqot materiallari:** O‘zbekiston Respublika Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining va uning Toshkent shahar, Samarcand viloyati Boshqarmalarining brusellyoz bilan kasallanishi bo‘yicha 2011-2021 yillardagi rasmiy hisobotlari. Brusellyoz bilan kasallangan bemorlarning epidemiologik tekshiruv kartalari, kasallik tarixlari.

**Tadqiqotning usullari:**

Ushbu ilmiy tadqiqot ishi bajarilishida epidemiologik, sanitariya-gigienik va statistik usullardan foydalanildi.

**Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi:**

1. Brusellyoz bilan kasallanish tendensiyasi, xavli ijtimoiy guruhlar, xavfli omillari aniqlandi;
2. Brusellyoz bilan kasallanish epidemik jarayoning jadalligi bo‘yicha yangi ma’lumotlar olindi;
3. Brusellyozning epidemiologik nazorat tizimini va profilaktikasini takomillashtirish imkoniyatlari yaratildi.

## I Bob. ADABIYOTLAR SHARHI

### 1.1. BRUSELLYOZ KASLLIGINING TARQALGANLIGI VA EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bugungi kunda zoonoz infeksiyalarning dunyo bo‘ylab keng tarqalganligi, sog‘liqni saqlash tizimi oldiga ularning oldini olish bo‘yicha aniq masalalar qo‘ymoqda [15,26,30,36,91,109,116].

O‘zinig biotik va abiotik omillarining g‘ayri tabiiylici bilan boshqa zoonoz yuqumli kasalliklar ichida brusellyoz kasalligi aloxida muhim o‘rin egallaydi.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti brusellyozni odamlarga katta iqtisodiy va ijtimoiy zarar keltiruvchi o‘ta xavfli karantin yuqumli kasalliklar ro‘yxatiga kiritgan.

JSST ma’lumotlariga ko‘ra, brusellez bilan kasallanish ko‘rsatkichi 1999-2006 yillarda har 100 000 aholiga 21,0-50,0 ni tashkil etgan bo‘lib, bemorlarning asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan [49,50,96].

JSSTning bergen ma’lumotlariga ko‘ra dunyo bo‘yicha har yili yarim million kishida brusellyoz bilan kasallanish holatlari qayd qilinadi [116].

Dunyoning ko‘pgina mamalakatlarida brusellyoz bilan kasallanish sezilarli iqtisodiy va ijtimoiy zarar keltiruvchi keng tarqalgan kasallik sifatida o‘z mavqeini saqlab qolmoqda [23,27,30,63,103,116,124].

G.G. Onišenkonning rasmiy ma’lumotlariga qaraganda Rossiyada oxirgi 14 yil ichida kasallanishning ma’lum bir darajada saqlanishiga qaramasdan, ayrim yillari kasallanish ko‘rsatkichi ko‘tarilgan (minimal ko‘rsatkichga nisbatan 2-2,5 barobar o‘sgan)ligi qayd etilgan.

Brusellyoz infeksiyasi deyarli butun dunyoda tarqalgan bo‘lib, endemik tumanlarda kasallanish darajasi 0,01 dan 200 va undan ortiq ko‘rsatkichlar oralig‘ida saqlanib qolmoqda [40].

Ba’zi adabiyot manbalari hatto rivojlangan mamlakatlarda ham haqiqiy kasallanish ko‘rsatkichi ro‘yxatga olinganidan ko‘ra 26 marta ko‘p bo‘lishi

mumkinligini ta'kidlamoqda. AQShda har yili brusellyoz bilan kasallanishning 200 ta holati ro'yxatga olinadi, lekin bu haqiqiy kasallanishning faqatgina 4-10% ini tashkil etadi [102,104,119,123,125].

Ilgari odamlar orasida brusellyoz bilan kasallanish ro'yxatga olinishi yuqori bo'lganligi kuzatilgan. Jahonning ko'pgina mamlakatlarida (Avstriya, Angliya, AQSh, Yangi Zelandiya) bugungi kunga kelib kasallanishning kamayganligi aniqlangan.

Rossiya Federatsiyasida har yili brusellyoz bilan 500 ta birlamchi kasallik holati ro'yxatga olinadi [35,46,57,65,76,101].

Shu bilan bir qatorda Rossiyadagi shimoliy Kavkaz, Povoljeskiy, Sibir hududlari brusellyoz infeksiyasi bo'yicha noxush hudud bo'lib qolmoqda [6,15,35,49,68].

Ba'zi mualliflarning ta'kidlashicha [23,63,98], Rossiya Federatsiyasining (RF) ko'pgina hududlarida hozirgi zamonaviy sharoitda ham brusellyoz kasalligi tibbiy-veterinariya va ijtimoiy- iqtisodiy muammo bo'lib bormoqda. So'nggi 10 yil mobaynida, brusellyoz bilan kasallangan bemorlar soni chorvachilik rivojlangan hududlarda eng ko'p ro'yxatga olinmoqda.

Oxirgi 10 yil davomida birlamchi brusellyoz tashxisi qo'yilgan umumiy kasallanganlar orasida 14 yoshgacha bo'lgan bolalar kasallanishining ortishi (5% dan 15% gacha), bu infeksiya bo'yicha epidemiologik vaziyatning noxushligidan dalolat beradi [2,19,33,55,68,77].

Har yili RF ning deyarli barcha federal okruglarida brusellyoz kasalligi uchramoqda. Kasallanishning intensiv ko'rsatkichi 100000 aholiga nisbatan 0,3 dan 0,4 gachani tashkil etmoqda [26,59,68,77,80,82].

Boshqa Rossiya mualliflarining bergan ma'lumotlariga ko'ra [23], Rossiyada brusellyoz bilan kasallanish darajasi har 100 ming aholiga nisbatan 0,2-0,5 ko'rsatkichlar oralig'iga to'g'ri kelmoqda. Bu yerda, birlamchi kasallanganlar haqida gap bormoqda. Bu borada, zararlanganlik ko'rsatkichi ancha yuqori, infektion jarayon qaytalanish holatlarini berishi mumkin, kasallikning surunkali turi bilan kasallangan bemorlar ham uchrab turibdi.

Mualliflarning fikricha va rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Rossiya Federatsiyasining(RF) ma'muriy hududlari va turli mintaqalaridagi aholi bir xil kasallanmagan. Tyiva Respublikasida 2001 yilda intensiv ko'rsatkich-8,7; Kalmikda-7,9; Dog'istonda-6,8; Stavropolda-2,7; RFda kasallikning o'rtacha ko'rsatkichi-0,4 ni tashkil qilgan [26].

Bugungi kunda brusellyoz bilan kasallanishning MDH mamlakatlari hududi bo'ylab tarqalishining bir xil emasligi aniqlangan [27].

Ba'zi mualliflarning bergan ma'lumotlariga [7,21,24] ko'ra Markaziy Osiyo mintaqasi uchun va ayniqsa endemik hududlar bo'lgan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston uchun ham hanuzgacha brusellyoz, sog'liqni saqlash tizimining murakkab muammosiligicha qolmoqda.

Masalan, Qozog'istonda epizootik vaziyatning yomonlashuvi tufayli brusellyoz bilan kasallanishning ortishi kuzatilmoqda. Kasallanish ko'rsatkichi har 100 ming aholiga nisbatan 1998 yilda 13,3; 1999 yilda 12,3; 2000 yilda 14,2 ni tashkil etgan [14].

Oxirgi 5 yillik kasallanish ko'rsatkichi Qirgizistonda 75,0; Tojikistonda 21,0; O'zbekistonda 1,9 ni tashkil etmoqda [50].

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida qator virusli va bakteriyali yuqumli kasalliklarning sezilarlik darajada kamaytirilishiga, ayrimlarining esa butunlay yo'qotilishiga erishildi. Lekin, brusellyoz kasalligi tibbiyat fani va amaliyoti uchun dolzarbligicha qolmoqda. Chunki bu kasallik an'anaviy tarzda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'ziga xos mavqega ega bo'lib, hayvon va inson organizmida infektion jarayonning surunkali tus olishi bilan xarakterlanadi va uning bu xususiyati tufayli hayvonlar doimiy faol infeksiya manbaiga, uning mahsulotlari esa kasallikni yuqtirish omiliga aylanib, epizootik jarayon uzluksizligini ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib qoladi [20,41].

Bizning mamlakatimizda kasallanish darajasi 100 000 aholiga nisbatan 0,1-0,5 oralig'ida uchraydi. Bu yerda, insidentlik nazarda tutilmoqda, ya'ni birlamchi aniqlangan bemorlar haqida gap ketgan. Prevalentlik (zararlanganlar) ancha yuqori ko'rsatkichda, chunki infektion jarayon qaytalanishi mumkin ya'ni

kasallikning surunkali shakli bilan kasallangan bemorlar bor. Ma'lumotlarga ko'ra turli hududlarda kasallanish ko'rsatkichi bir xil emas. Chorvachilik bilan shug'ullanadigan viloyatlarda (Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va b.q) kasallanish ko'rsatkichi boshqa joylarga nisbatan ko'proq qayd etiladi [53,93,94].

O'zbekiston Respublikasining ayrim viloyatlarida brusellez bilan kasallanish ko'rsatkichi respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan 3,8 marta yuqoriligidcha qolmoqda. Kasallik bolalar va kasbi hayvonlarni parvarish qilish bilan bog'liq bo'limgan aholi orasida ham ko'paymoqda [53,92].

So'ngi yillarda O'zbekistonda barcha yosh guruhlari orasida brusellyoz bilan kasallanish darajasining ko'tarilishi kuzatildi. Har yili har 100 ming aholiga nisbatan birinchi marta aniqlanganlar soni 1,5-2,2 holatlarda ro'yxatga olinmoqda. Ushbu ko'rsatkich MDX ning boshqa hududlaridan 2-5 barovar yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan bir qatorda kasallikning 80 % surunkali shakliga o'tib, ulardan 30 % nogiron bo'lib qolmoqda [21,24].

Brusellyozning bolalarda kechishi kattalardagiga qaraganda mutlaqo boshqacha ko'rinishlarda kechadi, shuning uchun kasallikning manbai nuqtai nazaridan ular, amaliy jihatdan katta ahamiyatga egadir. Brusellyoz infeksiyasi bolalarda turli xil klinik shakllarda va og'irlik darajasi bo'yicha turlicha.

Masalan, bolalarda brusellyozning o'tkir turi 30 foizni, yarim o'tkir shakli 34 foizni, ikkilamchi surunkali shakli 22 foizni va birlamchi surunkali shakli 14 foizni tashkil etadi. Rezidual (qaytalanuvchi) brusellyoz bolalarda kattalarga nisbatan kamroq uchrashi aniqlangan [2,31,120,124].

Bolalarda brusellyozning o'tkir va yarim o'tkir shakllari mактаб va maktab yoshigacha bo'lgan bolalar o'rtasida og'ir klinik shakillarda kechsa, birlamchi va ikkilamchi surunkali turlari barcha yoshdag'i bolalar o'rtasida yengil o'tadi: rezidual (qaytalanuvchi) brusellyoz turi esa barcha yoshdag'i bolalarda og'ir ko'rinishlarda kechadi va uning natijasida turli xil asoratlar qoldirib, hatto nogironlikka ham olib kelishi mumkin. Brusellyozning bolalar o'rtasida qayd qilinishi, ushbu hududda brusellyoz infeksiyasining ko'p

tarqalganligidan dalolat beradi. Bemorning oila a'zolari brusellyoz bo'yicha yuqish xavfi yuqori bo'lgan guruhgaga kiradi [31].

Qisqacha tarixiy ma'lumotlar. Brusellyoz – zoonoz infektion-allergik kasallik bo'lib, Brucella avlodiga mansub bakteriyalar qo'zg'atadi. Ba'zan, kasallik o'z vaqtida tashhis qo'yilmasligi, va davolashning kechiktirilishi oqibatida kasallikning surunkali, qaytalanuvchi shakilda kechishi bilan yakunlanadi. Kasallik, yuqumli kasalliklarga xos bo'lgan umumiylar belgilar bilan kechadi, bundan tashqari asta-sekin rivojlanib boruvchi mahalliy o'zgarishlar, xususan tayanch-harakat a'zolarda patologik o'zgarishlar ham kuzatiladi [26,75,95].

Kasallik qadimdan O'rta yer dengizi hududlarida ma'lum bo'lgan, va shuning uchun ilgarilari bu kasallik "O'rta yer dengizi isitmasi" nomi bilan ham mashhur bo'lib kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniya harbiylari Malta orollarida xizmat o'tayotgan ingliz askarlari orasida ham ushbu kasallik kuzatilgan. Kasallik "Malta isitmasi" deb nomlangan, kasallikning tabiatini o'rghanish maqsadida u yerga Bryus (Vruce) boshchiligida ilmiy ekspeditsiya yuborilgan. Keyinroq yirik shoxli qoramollarda (Bacillus abortus bovis) hamda cho'chqalarda (V. suis) ham echkilardan ajratilgan mikroorganizmlarga o'xshash qo'zg'atuvchilar aniqlangan.

Faqat XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, brusellyoz kasalligini haqiqiy va chuqur o'rghanish davri boshlandi [26,75,96].

Brusellyoz kasalligi diagnostikasida yoki brusellyoz kasalligini aniqlashda serologik tekshiruvlar A. Rayt va D. Sempl (1897) tomonidan yo'lga qo'yilgan. Rayt agglyutinatiya reaksiyasi (RA) keyinchalik kasallikning laboratoriya tashxisotida katta ahamiyat kasb etdi. 1912 yili Ashhabodda A.A.Kramnik odam organizmidan olingan sinamani serologik usullar yordamida tekshirib, brusellyoz tashxisini tasdiqlab berdi.

1922 yili A.N.Kryukov va V.P.Smirnov Toshkentda qoraoqsoq o'chog'ini aniqlashgan. 1935 yili N.I.Ragoza va A.A.Kasenovichlar Toshkent tibbiyot

institutining yuqumli kasalliklar klinikasi qoshida birinchi bo‘lib, brusellyoz bilan og‘rigan bemorlar uchun bo‘lim ochishdi.

**Etiologiyasi.** Brusellyoz kasalligining qo‘zg‘atuvchilari - Brucella turkumiga kiruvchi bakteriyalardir. Brusella turkumi 6 tur va 17 biovardan iborat. Har bir turdag'i va biovardagi brusellalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ular maxsus bakteriologik usullar yordamida bir-biridan farq qilinadi.

Ilmiy tasnifi: turi-bakteriya, tipi-proteobakteriya, sinfi-alfa-proteobakteriya, tartibi-rhizobiales, oilasi-brucellaceae, turkumi-brucella [26].

Brusellalarning har xil turi, hattoki bitta turning ichidagi shtammlari ham virulentligi bilan bir- biridan tubdan farq qiladi. Odamlar uchun eng patogen turi bu *B. melitensis* bo‘lib, ko‘pincha kasallikning epidemik ko‘tarilishini keltirib chiqaradi. *B. abortus* va *B. suis* odatda sporadik kasallik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. *B. ovis*, *B. neotomae* va *B. canis* turlarining epidemiologik ahamiyati to‘liq o‘rganilmagan.

Brusellalar bir biridan morfologik belgilari bilan farq qilmaydi. Brusellalar – sharsimon, ovoid yoki kokksimon-batsilla shaklidagi mikroorganizmlardir. Brusellalar yuqori haroratga chidamsiz: + 60°С da 30 daqiqada , + 80-85°С da - 5 daqiqada, qaynatilganda esa darhol o‘ladi. Past haroratga chidamli, muzlatkichlarda saqlanadigan oziq-ovqat mahsulotlarida uzoq vaqt saqlanadi. To‘g‘ridan tushuvchi quyosh nuri ta’sirida brusella 4-5 soatda halok bo‘ladi, tuproqda 100 kun, suvda esa 114 kungacha yashaydi. Brusellyoz qo‘zg‘atuvchisi har xil dezinfeksiyalovchi moddalarga yuqori sezgirlikka ega: 2% li fenol, 3% li kreolin va lizol eritmalar, 0,2-1% li xlor aralashmasi va xloramin eritmalar ularni bir necha daqiqada o‘ldiradi [26,95,100].

**Yuqish mexanizmi va tarqalish yo‘llari** epizootik jarayon uy hayvonlari orasida fekal-oral yuqish mexanizmining alimentar, maishiy muloqat yo‘llari hisobiga ta’milanadi, biroq jinsiy yo‘l ham ehtimoldan xoli emas. Odamlar odatda kasallikni alimentar yo‘l bilan yuqtirib oladilar - zararlangan sut va sut mahsulotlarini iste’mol qilganda yoki yetarli issiqlik ishlovi berilmagan go‘sht

mahsulotlarini yoki xom go'sht iste'mol qilganda kasallikni yuqtiradilar [26,85,75].

**Brusellyoz bilan kasallanishning mavsumiyligi** kasallanish o'sgan davrga, bahor-yoz oylariga to'g'ri keladi. Yanada yaqqol mavsumiylikni kasallikning kasbga bog'liqligi belgilaydi (mollarda bola tashlash va to'l tushish mavsumi davrida). Agarda kasallanish faqat oziq-ovqat orqali tarqalgan bo'lsa, mavsumiylik yaqqol namoyon bo'lmaydi va epidemik jarayon yil mobaynida bir xilda kechishi mumkin [26,65,75].

Brusellyoz bilan ko'proq, ma'lum kasbga mansub kishilar ya'ni hayvonlar bilan yaqin muloqotda bo'ladigan shaxslar kasallanadilar (veterinarlar, zootexniklar, cho'ponlar, sut sog'uvchilar va b.q.). Shuningdek, kasallanishning yuqori ko'rsatkichlari, go'shtni qayta ishlash korxonalari, sut mahsulotlari kombinati ishchilari va ayniqsa xom ashyoga birlamchi ishlov berish bo'limlari ishchilarida ko'proq kuzatish mumkin [3,7,24].

Qishloq aholisi, shahar aholisiga qaraganda ko'proq kasallanadilar. Katta yoshdagilarga qaraganda bolalar kamroq kasallanadilar.

Brusellyoz kasalligi bilan kasallanish xavfi yuqori bo'lgan xavfli guruhgaga ko'proq, chorvachilik xo'jaligi ishchilari, xususiy xo'jalikda mol bilan bog'liq ish bilan shug'llanadigan odamlar kiradi. Shuningdek xavf omillariga qaynatilmagan sut, ayniqsa echki suti hamda qaynatilmagan sutdan tayyorlangan pishloq va boshqa sut mahsulotlarini iste'mol qilish holatlari kiradi [7,24,26,101,109].

Brusellyoz qo'zg'atuvchisining yuqish mexanizmi epidemik (epizootik) jaryon ta'limotga ko'ra, ko'p bosqichli va murakkab hodisa bo'lib, kasal hayvon organizmidan har xil ekskrementlar va patologik ajralmalar orqali ajralishini o'z ichiga oladi; qo'zg'atuvchini tashqi muhitning turli ob'ektlarida hamda oziq-ovqat mahsulotlarida va hayvonlardan olingan mahsulotlarda bo'lishi; sog'lom odam yoki hayvon organizmiga brusellaning tushishidir. Bunda shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, brusellyoz kasalligi qo'zg'atuvchisining hayvondan odamga yuqish mexanizmi va uning odam organizmida joylashishi, brusellaning

evolyusion yo‘l bilan murakkablashgan biologik xususiyatlarini belgilab bermaydi, shuning uchun evolyusion qarashlarga ko‘ra odam tasodifiy xo‘jayin xarakteriga ega. Natijada brusellyoz qo‘zg‘atuvchilarining hayvonlardan odamlarga yuqishining maxsus mexanizmi shakillanmagan. Og‘iz bo‘shlig‘ining shilliq qavati, ovqat-xazm qilish tizimi, teri qoplamlari, nafas olish yo‘llari, konyunktiva, hayvonlarda esa tanosil a’zolari ham qo‘zg‘atuvchining kirish darvozasi hisoblanadi. L.V.Gromashevskiy taklif etgan yuqumli kasalliklarning epidemilogik tasnifiga asosan, qo‘zg‘atuvchining organizmdagi birlamchi joylashgan joyi va yuqish mexanizmiga mos ravishda, brusellyoz ichak infeksiyalariga kiritilgan. Ammo, P.A.Vershilovaning ta’kidlashicha (1972), brusellyozni faqatgina bitta yuqish mexanizmi fekal-oral bilan ichak infeksiyasiga kiritish to‘g‘ri emas, brusellyoz qo‘zg‘atuvchisi odam organizmiga bir necha yo‘llar bilan kirishi mumkin. L.V.Gromashevskiy prinsiplaridan kelib chiqqan holda, bir qancha zoonozlar (jumladan brusellyoz) hozirgi kunda mavjud bo‘lgan 4ta guruhdagi infeksiyalarning hech biriga to‘g‘ri kelmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, turli yuqish mexanizmlariga ega bo‘lgan infeksiya guruhlarini ajratish va unga brusellyozni kiritish maqsadga muvofiqdir (Yelkin I.I., Yashkul V.K., 1973).

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni e’tiborga olgan holda, brusellyozda infeksiyaning uchta yuqish yo‘li yoki odam organizmiga qo‘zg‘atuvchining kirish yo‘llari farq qilinadi: birinchisi, eng ko‘p tarqalgani – peroral, bunda qo‘zg‘atuvchi turli ishlab chiqarish va xo‘jalik omillari bilan muloqotda bo‘lganda qo‘zg‘atuvchi og‘iz orqali ovqat xazm qilish tizimiga tushadi; ikkinchisi maishiy - muloqot yo‘li, bunda qo‘zg‘atuvchi organizmga teri orqali kiradi; uchunchisi, kam tarqalgan yuqish yo‘li bo‘lib, ovqat orqali yoki umumiy qabul qilingan terminologiya bo‘yicha – alimentar yuqish yo‘li, bunda qo‘zg‘atuvchi organizmga brusella bilan zararalangan oziq - ovqat (sut va go‘sht mahsulotlari) iste’mol qilganda tushadi. Juda kam hollarda qo‘zg‘atuvchi aerogen (aspiratsion) yo‘l bilan, ya’ni tuproq, jun, go‘sht va suyak changlari orqali yuqadi. Eksperimental va epidemiologik tekshirishlar natijasida

brusellalarning nafas olish yo‘li a’zolari orqali ham kirishi mumkinligi aniqlangan (Karakulov I.K.,1949; Aleksandrov N.I. va hammualliflar.,1960).

Qo‘zg‘atuvchining tarqalish yo‘li va yuqish mexanizmini hamda asosiy yuqish omilini aniq va to‘g‘ri bilish, epidemiyaga hamda epizootiyaga qarshi chora-tadbirlarni tanlash taktikasini belgilab beradi [24,26,75].

## **1.2. BRUSELLYOZ KASALLIGINING HAYVONLARI ORASIDA TARQALGANLIGINING EPIZOOTOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Brusellyozning veterinariya muammosi sifatidagi ahamiyati hayvonlar sog‘ligiga va chorvachilik sohasiga yetkazayotgan jiddiy salbiy ta’siri – chorva mollar sonining kamayishi, hayvonlar tug‘ish faoliyatining buzilishi, mahsulorligining pasayishi, kasallikning epizootiya tusini olishi, odamlarga hayvonlar va ularning mahsulotlari orqali yuqish ehtimoli kabi qator holatlar bilan uzviy bog‘langanligi bilan belgilanadi [9,10,48].

Hozirgi davrda qo‘zg‘atuvchining biologik xususiyatlari transformatsiyasi hamda makro va mikro organizmlar yashash muhitining ijtimoiy - ekologik va iqtisodiy sharoitlari ta’siri natijasida yuzaga kelgan bir qancha klinik, epidemiologik xususiyatlarining o‘zgarishi namoyon bo‘lmoqda. Bu ayniqsa brusellyozga xos, chunki ushbu infeksiyaning epidemik hamda, epizootik jarayonining namoyon bo‘lish xususiyatiga bog‘liq [4,10,120].

Epizootik jarayon o‘z navbatida jamiyatda kechayotgan ijtimoiy iqtisodiy jarayonlar, insonning xo‘jalik faoliyati darjasи, mehnat va maishiy sharoitlari, nazorat sifati va nihoyat o‘tkazilgan tibbiy-veterinariya chora-tadbirlarning me’yoriy-huquqiy asoslanishlariga uzviy bog‘liq [9,15,18,26,111,117].

Vaziyat ayniqsa, 90-yillarda, brusellyoz bo‘yicha epizootik vaziyatning murakkablashuviga olib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar tufayli yomonlashdi [7,33,84].

Epizootik va epidemik jarayon boshqarilishi bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqarishda xususiy (shaxsiy) sektorga tegishli bo‘lgan qishloq xo‘jaligi hayvonlari orasida brusellyoz bo‘yicha epizootik vaziyat haqida ma’lumotlarning yo‘qligi katta qiyinchilik tug‘dirmoqda.

Xususiy sektorning rivojlanishi, ularda sanitariya-veterinariya nazoratining susayishi, brusellyozning kengroq tarqalishiga olib keladi va ushbu muammoni yanada murakkablashtiradi [32,36].

Bir qator mualliflarning fikricha, oxirgi yillarda kuzatilayotgan qishloq xo‘jalik fermalaridagi o‘zgarishlar, brusellyoz kasalligidan chorva hayvonlarini sog‘lomlashtirish jarayonlarini susaytiradi [40,41].

Beotsenozlarda shakillangan brusellyoz manbalari ta’sirida yirik va mayda shoxli mollarni brusellyoz bilan zararlanishi keskin ortadi [44,47,48].

Insonning tabiiy eko-tizimga aralashuvi, chorva mollari sonining kamayishi va qishloq xo‘jaligida xususiy sektorlarning rivojlanishi, tabiatni muhofaza qilish va epizooto-epidemiologik chora-tadbirlar hajmining kamayishi zamonaviy brusellyozning epizootik jarayoni kechishiga katta ta’sir ko‘rsatdi [44,48].

Brusellyoz kasalligining epizootik o‘chog‘i - bu infeksiya manbai (kasallangan hayvon) mavjud bo‘lgan joy va yuqumli ksallik qo‘zg‘atuvchisining zararlangan hayvondan boshqa hayvonlar va odamlarga yuqtira olish imkoniyati mavjud bo‘lgan hududdir. V.I.Agafanovaning (1973) fikricha hayvonlar bilan shug‘ullanuvchi alohida xo‘jaliklar va ularning guruhlarini epizootik o‘choq deb hisoblash mumkin, chunki ular hududida, hayvonning saqlanishi, epizootik jarayonning uzlucksiz davom etishi hisobiga brusellyoz qo‘zg‘atuvchisini aniq bo‘lмаган узоқ ваqt mavjud bo‘lishini ta’minlaydi. Kundalik amaliyotda epizootik o‘choqni “brusellyoz bo‘yicha noxush punkt” deb yuritiladi. I.I.Yelkinning (1973) fikricha, infeksiya o‘chog‘i deganda, hayvon yoki odam organizmida infektion jarayonning mahalliy kelib chiqishi tushuniladi, masalan, brusella va ularning toksinlari bilan zararlangan limfa tugunlari, jigar, bo‘g‘imlar, sut bezlari va h.k.

Brusellyozning epizootik o‘chog‘i mavjudligining birinchi sharti kasal hayvonning mavjudligidir. Infeksiyaning yuqishida ko‘plab omillarning ahamiyati katta, ular orqali qo‘zg‘atuvchilar tarqaladi. Brusellyozning epizootik o‘chog‘i aholi yashash punkti, ferma, otar, shaxsiy xo‘jalik (hovli) bo‘lishi mumkin [44 ].

Ma’lumki, echkilar brusellyozga 1,5-2 barobar, qorako‘l qo‘ylari oddiy qo‘ylarga nisbatan 5-10 marta ko‘proq sezuvchandir.

Bola tashlagan hayvonlarning patologik ajralmalari,suti va peshobi orqali qo‘zg‘atuvchining ajralishi uzoq davom etadi. Bu davrda brusellyoz sabab bo‘lgan abortning bakteriologik tasdiqlanishi 80 foizga yetadi (Vershilova P.A.,1972). Aniqlanishicha, brusellyoz sababli kelib chiqqan abortlar, homiladorlikning ikki oyligida boshlanadi va 3-4 oylikda ko‘payadi (Vershilova,Tarasov.1973).

M.K.Yuskoves (1952,1960) fikricha hayvonlar infeksiya manbai sifatida 1,5 yildan 4 yilgacha xavfli bo‘lib qoladi. Ammo, ayrim hollarda ba’zi hayvonlar uzoq vaqt batsilla tashuvchi bo‘lib qolishi mumkin.

Shunday qilib, odamlar uchun mayda shoxli hayvonlar o‘choqlari yuqori xavfga ega bo‘lib, kasallikning 70 dan 90 foizigacha shu o‘choqlarda uchraydi [48].

Ko‘p hollarda qo‘zg‘atuvchi mollarning sut bezlarida joylashadi va uzoq vaqt sut bilan ajraladi. Ayrim mualliflarning fikricha brusella mollarning sutida 8,4-30 foiz hollarda uchraydi (Korzenko V.N.,1960; Vershilova P.A., Golubeva A.A.,1970).

Brusellyozning qoramol o‘choqlarida kasallikka moyil bo‘lgan kishilar turli mualliflarning fikricha 30 dan 85 foizgacha uchraydi. (Sazыкин S.P.,1959; Korzenko V.N.,1960; Shнырева Ye.A., ham- mualiflar,1978). Odamlarga bu o‘choqda infeksiyani yuqishi nafaqat hayvonlarning zararlanish darajasi va epizootik jarayonning faolligiga, balki sanitarya-veterinariya choralarning tashkillashtirish darajasiga hamda o‘choqlarda xodimlar ishlashining davomiyligiga, ishning xarakteriga ham bog‘liqdir. Veterinarlarga yuqish

darajasi 95 foiz, sut sog‘uvchilarda 72,5 foizni tashkil yetadi. Ish staji qanchalik katta bo‘lsa, yuqish foizi ham yuqori bo‘ladi [48].

Cho‘chqalar Br.suis ga moyil. Bu turdagи brusella, cho‘chqachilik ferma va korxona ishchilariga yuqishi mumkin. Cho‘chqalar brusellyozi o‘choqlarida o‘tkazilgan ko‘pgina kuzatuvlarga ko‘ra, brusellyozning Br.melitensis va Br.abortus turlarga qaraganda Br.suis turining patogenligi past ekanligi ma’lum bo‘ldi. (Vershilova P.A.1972). Shu bilan birgalikda, cho‘chqa brusellyozining ayrim o‘choqlarida Br.suis ning 2 biotipi ajratiladi, bu biotip odam uchun yuqori patogenlikka ega bo‘lib, odamlar o‘rtasida epidemik ko‘tarilish chaqiradi (Remensova M.M.,1975).

Brusellyoz o‘chog‘ining aralash xilida kishilarga kasallikning yuqishi va kasallanishi hamma yoshdagi shaxslar uchun xavfli hisoblanadi (Jalilov K.J, Sayidqulov B. 1995).

Kasallik keng tarqalish xususiyatiga ega bo‘lib, ommaviy bola tashlash, qisir qolish, mahsuldorlikning kamayishi, yosh mollar rivojlanishining pasayishi bilan, ba’zan esa klinik belgilarsiz kechadi [24].

Tabiiy sharoitda hayvonlar brusellez qo‘zg‘atuvchisi bilan zararlangan yem-xashakni, suvni iste’mol qilganda, ko‘z va burun bo‘shlig‘ining shilliq pardasi orqali, shuningdek, zararlangan teri orqali hamda hayvonlarni urug‘lantirishda veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilinmagan payitda kasallanadi. Eng xavflisi, kasal mollar bola tashlash vaqtida o‘zidan ko‘p mikdorda brusella mikroblarini tashqi muhitga ajratadi va yem-xashak, suv, chorvachilik asbob-uskunalarini zararlantiradi [24,28].

Brusellyoz kasalligiga chalinish va uning tarqalishiga asosiy sabab xo‘jaliklarga keltiriladigan mollarning veterinariya ko‘rigidan to‘liq o‘tkazmaslik, ular orasida kasal mollarning bo‘lishi, hayvonlarni o‘zboshimchalik bilan bir podadan ikkinchisiga o‘tkazilishi holatlari va nihoyat bozorlarda kasal mollar bilan savdo-sotiq qilinishidir [24,48].

Kasallik qo‘zg‘atuvchisi, organizmga tushgandan keyin yashash va ko‘payish natijasida limfa tugunlariga, parenximatoz organlariga

joylashib keng tarqalgan (generalizatsiyalangan) shakliga o‘tadi. Qo‘zg‘atuvchi bachadonning shilliq pardasida o‘ziga eng qulay sharoitni topadi va rivojlanish natijasida bola tashlashgacha olib keladi. Brusellyoz bilan kasallangan sigir va g‘unajinlar ko‘pincha 5-7 oylik bo‘g‘ozlik davrida bola tashlaydi [10,44].

Kasallik ko‘pincha klinik belgisiz o‘tadi, lekin asosiy klinik belgilaridan 5-7 oylik bo‘g‘ozlik davrida bola tashlash, bo‘rsiq, buqa va qo‘chqorlarda orxit belgilari hisoblanadi. Kasallikning yashirin davri bir oy va undan ham uzoqroq muddat davom etishi kuzatiladi.

Brusellyoz kasalligining epizootologiyasini chuqur o‘rganishda shu ma’lum bo‘ldiki, unga qarshi kurashda kasallikni o‘z vaqtida aniqlash va tashxis qo‘yish katta ahamiyatga ega. Lekin, kasallikning hayvonlarda o‘ziga xos kechishi uning tashxisini qiyinlashtiradi. Shuning uchun ilm-fan mavjud tashxis qo‘yish vositalarini va usullarini takomillashtirish hamda yangilarini yaratish ustida tinmay izlanishda bo‘ladi [10,17,24].

Brusellez bilan kasallangan hayvonlarda tashxis qo‘yish uchun xarakterli patologanatomik o‘zgarishlar yo‘q. Zararlangan hayvon bola tashlagan holatlarda homila brusellezga bakteriologik uslubda tekshiriladi. Bola tashlagan hayvonlar jigarida nekroz o‘choqlari bo‘lish ehtimoli mavjud. Bir xil mollarda bo‘rsiq, jigarida absesslar bo‘lishi mumkin.

Brusellezning oldini olishda fermalarning sanitariya holatini yaxshilash, dezinfeksiya va deratizatsiya tadbirlarini o‘z vaqtida o‘tkazish o‘ta muhim tadbir hisoblanadi [41].

Mayda shoxli hayvonlar brusellyoz qo‘zg‘atuvchisi *B.melitensis* brusella turlari ichida odam uchun eng xavfisi hisoblanadi [10,28]. Kasallangan hayvonlarni aniqlash uchun olib boriladigan tegishli nazoratning yo‘qligi va maxsus profilaktika ishlari olib borilmasligi tufayli, o‘choqlarning epizootik faollik darajasi yuqori darajada saqlanib qolmoqda [36,41].

Mayda shoxli hayvonlar brusellyoz kasalligini nazorat qilish tizimi bu V. abortus 19 - vaksina shtammi bilan konyunktival usulda emlash va doimiy

ravishda kasal hayvonlarni o‘z vaqtida erta aniqlash hamda ularni yo‘q qilishga asoslangan [9,10,15]. Buning samarasi kasallangan va emlangan hayvonlarni farqlashdan iborat. Ushbu maqsadda qo‘llaniladigan serologik reaksiyalar bir-birini kuchaytirishi yoki susaytirishi mumkin.

Shu sababli agarli geldagi immunodiffuziya reaksiyasi (RID) mayda shoxli hayvonlarning brusellyoz kasalligiga tashxis qo‘yishda eng samarali va mos usullardan hisoblanadi [10]. Shuni ta’kidlash kerakki, emlangan hayvonlarni serologik tekshirish usullaridan bo‘lgan brusella antigeni bilan tekshirish usulini qo‘llash natijasida, vaksina shtammiga nisbatan ko‘rsatkichlar har xil bo‘lishi kuzatiladi va ushbu (RID) usuli bilan tekshirishdagi masalani hal qilishga yordam beradi.

Olingen ma’lumotlarga ko‘ra, 1994-2002 yillarda respublikamizda brusellez bilan kasallanishning pasayishi kuzatilgan. Lekin ayrim hududlarda brusellez bilan kasallanish darajasi nisbatan yuqoriligidcha qolmoqda. Bu hol respublikaning ko‘pchilik hududlarida brusellyozga nisbatan faol epizootik potensialning mavjudligidan dalolat beradi va tegishli profilaktik hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqarish va ularni takomillashtirish zaruriyatini taqozo qiladi [10,24,26,41,73].

Zoonoz kasalliklar orasida brusellyoz bilan kasallanish alohida o‘rin egallaydi. Qo‘zg‘atuvchinig tashqi muhitga chidamliligi, yuqori virulentligi, immunogenligining pastligi, tabiatda keng tarqalganligi chorva xo‘jaliklarida antropurgik o‘choqlar xosil bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda [24].

Qo‘zg‘atuvchi patogenlik xususiyati bo‘yicha 2- guruhga kiradi. Infeksiyaning yuqish yo‘li va omili turli xil bo‘lib, odam barcha yoshda brusellyozga moyil hisoblanadi, kasallik uzoq vaqt davom etadi, davolash imkoniyati qiyin. Kasallik deyarli hamma organ va tizimlarni zararlaydi va surunkali infektion jarayonga o‘tib, ko‘pincha bemorni nogironlikka olib keladi [12,59,62,67,98,118,121,125].

Brusellyoz, infektion tabiatga ega kasb kasalliklari orasida yetakchi o‘rin egallaydi [18,21,22,41,58,64,100,118].

Bugungi kunda tibbiyot va veterinariya, sog'liqni saqlash tizimida brusellyoz, butun dunyo muammosiga aylangan kasallik hisoblanadi [92,99,106,113,119,124].

JSSTning brusellyoz bo'yicha ekspert komiteti ma'lumotlariga ko'ra bu kasallik jahonning 155 mamlakatlarida ro'yxatga olinganligi qayd qilinadi. Brusellyoz nisbatan O'rta yer dengizi mamlakatlarida, kichik Osiyo, janubiy va janubiy sharqiy Osiyo, Afrika, sharqiy va janubiy Amerikada keng tarqalgan kasallikkir [51,103,112,117,123].

Shu bilan bir qatorda, bir necha mamlakatlar va ayniqsa, Yevropa (Angliya, Daniya, Germaniya, Finlandiya, Shvesiya, Norvegiya, Shvesariya, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya) shuningdek Yaponiyada bu kasallikni insonlar va hayvonlar orasida deyarli butunlay yo'qotishga erishilganligi ma'lum [24,96,108,109,117,124].

Markaziy Osiyo, Kavkazorti, shimoliy Kavkazda kasallanishning yuqori ko'rsatkichlari qayd qilingan. Bu hududlarda brusellyoz bo'yicha epidemiologik holat, shu infeksiyaning mayda shoxli hayvonlar orasida tarqalganligi bo'yicha aniqlandi [4,7,42,56,63,67].

Ma'lumotlarga ko'ra Qirg'iziston Respublikasida brusellyoz bo'yicha noxush epizootik vaziyat mavjud. Odamlarning ushbu zoonoz kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichlarining yuqoriligi, MDH mamlakatlaridan o'n barobar ko'pligi bunga dalil bo'ladi [67].

Aholining umumiyligi kasallanish ko'rsatkichining 32% ini brusellyoz bilan kasallangan bolalar tashkil qilishi ancha jiddiy holatdir.

Bir qancha mualliflarning fikriga ko'ra Qozog'iston va O'zbekiston aholisi orasida ancha yuqori kasallanish kuzatilmoqda.

Markaziy Qozog'istonda brusellyoz muammosini o'rganishga katta qiziqish uyg'onmoqda. Chunki, bu hudud, odamlarning kasallanish darajasi bo'yicha ko'p yillar mobaynida hamdo'stlik mamlakatlari orasida yetakchilik qilib kelmoqda. Respublikada 1990-2000 yillargacha intensiv kasallanish ko'rsatkichi har 100 ming aholiga nisbatan 10,6 dan 19,1 ko'rsatkichlarda

kuzatilib turgan. Birgina 2001 yilda respublikada 1993ta brusellyoz bilan kasallanish holatlari ro'yxatga olingan [3,7,52,86].

Markaziy Qozog'istonda brusellyozning keng tarqalishi, bu infeksiyaning bir qancha o'ziga xos epidemiologik xususiyatlarini namoyon bo'lishiga olib kelmoqda; bolalar kasallanishining yuqoriligi (boshqa mamlakatlarda brusellyoz kasb kasallanishi sifatida kechayotgan bir vaqtda), zararlanishning kam tarqalgan yo'lining tez-tez uchrashi (havo chang), og'ir va asoratli turlarning ko'pligi bilan xarakterlanadi.

MDH mamlakatlarida brusellyozga qarshi samarali kurashib kelinishiga qaramasdan, kasallanish ko'rsatkichlari xamon yuqoriligidcha qolmoqda, shu qatorda O'zbekiston Respublikasidagi chorvachilik keng tarqalgan hududlarida epizootik noxush holatlar bilan aholi orasida kasallanish yuqoriligidcha qolib kelmoqda.

Markaziy Osiyo Respublikalarida oxirgi 10 yil mobaynida bolalar va 14-18 yoshgacha bo'lган о'smirlarning (birinchi marta tashxis qo'yilgan umumiy kasallanganlar) kasallanish xolatlari 3 barobar ortdi [1,2,7,31,33,42].

Oxirgi 10 yil mobaynida brusellyoz kasalligining o'tkir klinik turining kamayishi va yuqori mehnat qobiliyatining yo'qolishi, uzoq kechishi bilan brusellyozning surunkali klinik turining ortishi kuzatilmoxda [45].

Brusellyozning mayda shoxli hayvonlardan yirik shoxli hayvonlarga migratsiyasi tufayli, odamlar orasida brusellyozning tarqalishida sut mahsulotlari omilining ortishi kuzatilmoxda. Bu esa o'z navbatida shahar aholisining, shu bilan bir qatorda bolalarning kasallanish ko'rsatkichlari ortishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston hamda Qozog'istonda brusellyozning o'ziga xos bo'lган xususiyati, kasallikning surunkali (71.2% gacha) shakllari, jumladan birlamchi surunkali (48% gacha) shakillarining ustunligidir [9,21,27].

Bir qator mualliflarning fikricha Qozog'iston xududida echki-qo'y brusellyozining oshishi kasallikning klinik ko'rinishi evolyusiyasiga ta'sir

qilgan, ya’ni kasallikning qaytalanuvchi va uzoq muddat kechishiga moil manifest shakillari ko‘paygan [39].

Shuni takidlash joizki, inson faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy- maishiy, xalq xo‘jaligi va ekologik omillarning o‘zgarishi ko‘pgina zoonozlar, jumladan brusellyozning ham epidemik va epizootik vaziyatini o‘zgarishiga olib keldi [9].

### **1.3. BRUSELLYOZ KASALLIGIDA EPIDEMIOLOGIK NAZORAT VA PROFILAKTIK CHORA – TADBIRLAR TIZIMI**

Ayrim olimlarning bergen ma’lumotlariga ko‘ra [67,86] Rossiyada har yili 400-550 ta brusellyozning birlamchi kasallanish holati ro‘yxatga olinadi. Lekin brusellyoz hamma hududlar bo‘yicha bir xil taqalmagan, chorvachilik bilan shug‘ullanadigan tumanlarda ko‘proq ro‘yxatga olinadi. Mualliflarning ta’kidlashicha yuqori kasallanish ko‘rsatkichlari Kalmik, Karachaev-Cherkesiya, Dog‘iston, Volgograd viloyatlarida aniqlangan.

Rossiya Federatsiyasida odamlar orasida brusellyoz bo‘yicha katta epidemiologik avj olishlar 1993-1994 yillarda Orenburgda ro‘yxatga olingan [86].

Jahon Sog‘lijni Saqlash Tashkiloti bosh direktorining Butun Dunyo Sog‘lijni Saqlash assambleyasi XXXI sessiyasidagi ma’ruzasida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda turli mamlakatlarda JSST va FAO/JSST bilan hamkorlikda ish olib boradigan va brusellyozga qarshi kurashish bo‘yicha tuzilgan markazlar aktiv faoliyat ko‘rsatmoqdalar [106].

Alohibda ta’kidlab o‘tish kerakki, 90 yillarda bo‘lib o‘tgan ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlar, qishloq xo‘jaligining xususiylashtirilishi, MDH mamlakatlarida brusellyoz bo‘yicha epizootik va epidemiologik vaziyatning jadallahishiga, shu bilan bir qatorda iqtisodiy qiyinchiliklar, shaxsiy xo‘jaliklardagi hayvonlar ustidan sanitariya - epidemiologiya nazoratining susayishi ham sezilarli darajada o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

Bolalarda brusellyoz kasalligining klinik kechishi, 1970 yillargacha og‘ir intoksikatsiya belgilari yaqqol namoyon bo‘lganligi va a’zolarning og‘ir zararlanishi bilan xarakterlanganligi haqida, adabiyot ma’lumotlari guvohlik beradi [24, 45, 46].

Oxirgi 20 yil davomida brusellyoz kasalligi bilan kurashish bo‘yicha o‘tkazilgan samarali epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar natijasida, bolalar o‘rtasida brusellyoz kasalligining kamayishiga erishildi. Kasallikning klinik ko‘rinishlarini yengillashgan kechishi tomoniga va surunkali shakillarga keskin o‘tish evolyusiyasi bilan kichik yoshdagi bolalar o‘rtasida kasallanish holatlarining yo‘qolib ketishi kuzatilmoxda [71].

Hayvonlar va insonlarni biologik himoyasi bo‘yicha chora-tadbirlar tizimida muhim bosqich bo‘lib, zoonoz infeksiya qo‘zg‘atuvchilarini tashqi muhit ob’ektlarida tezkor aniqlash hisoblanadi.

Hozirgi paytda, epidemiologik nazoratning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, sanitariya-epidemiologik vaziyatni ob’ektiv baholash imkoniyatini beradigan va uning faoliyati natijalarini yaxshilash bo‘yicha eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, laboratoriya nazorati hisoblanadi

Shu munosabat bilan yuqorida ko‘rsatilgan muammolarni hal qilishda, qaerda qo‘zg‘atuvchilarning mavjudligi, sog‘liqni saqlash amaliyotida mayjud bo‘lgan usul va vositalar yordamida qiyin aniqlanadigan, tashqi muxit laboratoriya usullarining obektlaridagi qo‘zg‘atuvchilarni aniqlashda maxsus indikatsiyaning yuqori samarali test-tizimi yaratilishini ko‘zda tutadi [29,38,74,76,89,112,119].

**Brusellyozga qarshi chora- tadbirlar usullarini ko‘zda tutgan holda, epidemiologik nazorat quyidagi asosiy vazifalarni o‘z ichiga oladi:**

1. Standartlashtirilgan hujjatlar asosida kasallanishlar va o‘lim holatlari haqida ma’lumotlarni tizimli to‘plash;
2. Bakteriologik, virusologik tashxisiy (diagnostik) tadqiqotlar (tekshirishlar) ko‘pincha, laboratoriya xizmatlari faoliyati so‘rov ma’lumotlari asosida olib boriladi. Ushbu xizmatlar aholi orasida aylanib yurgan

(sirkulyatsiya qiladigan) yuqumli kasalliklar etiologik (qo‘zg‘atuvchilarini) omillarini aniqlashda, shuningdek xo‘jayin populyatsiyalarida tarqalgan infektion kasalliklar qo‘zg‘atuvchilari ustidan muntazam ravishda, tizimi kuzatish o‘tkazib turish uchun juda muhim tadbir hisoblanadi.

3. Odamlar va hayvonlar o‘rtasida aholining immunologik holatini (statusini) aniqlash va baholash maqsadida, odamlar va hayvonlarning qon zardoblarini o‘rganish va ularni to‘plash yo‘li orqali, yuqumli kasalliklarning odamlar va hayvonlar orasida tarqalganligi haqida axborot (informatsiya) olish uchun ushbu kasallik bilan zararlanish xavfi dinamikasini baholash maqsadida, joriy va retrospektiv immunologik tadqiqotlarni (tekshirishlarni) amalga oshirish.

4. Kasallik qo‘zg‘atuvchisining asosiy xo‘jayini bo‘lgan - qishloq xo‘jaligi hayvonlarining soni va taqsimlanishi dinamikasi haqidagi ma’lumotlarni to‘plash;

5. To‘plangan ma’lumotlarni umumlashtirish (mujassamlashtirish yoki jamlash) va tahlil (analiz) qilish, brusellezga qarshi joriy kurash olib borish strategiyasi va taktikasi bo‘yicha sog‘liqni saqlash hamda veterinariya tashkilotlariga (organlari yoki muassasalariga) tavsiyalar berish, hamda milliy axborot xizmati, BJSST va Halqaro Epizootik Byuro bilan hamkorlikda o‘zaro axborot almashish uchun ma’lumotlar yetkazish;

6. Epidemiologik nazorat usullarini mukammallashtirish sohasida ilmiytadqiqot ishlarini amalga oshirish;

Epidemiologik nazoratning ushbu bo‘limi kelajakda uning uslublarini rivojlantirishdagi zaruriyati bilan bog‘liqligi bo‘yicha muhim hisoblanadi. Shuningdek, epidemiologik nazorat faoliyati natijasida, faqat, bundan keyingi tadqiqotlar o‘tkazish yo‘li bilan hal qilinishi mumkin bo‘lgan ko‘pgina yangi muammolar o‘z yechimini topadi.

Sanab o‘tilgan elementlardan epidemiologik holat va laboratoriya tadqiqotlar haqidagi ma’lumotlar eng muhimi hisoblanadi.

Rossiyalik olimlar [77,78,82] brusella antigenini IFA yordamida monoklonal antitelo asosida ishlab chiqishni diagnostik test - tizimini ishlab chiqdilar.

Brusellezning oldini olish va unga qarshi kurash kompleks chora-tadbirlari ichida maxsus vositalarsiz hudud va xo‘jaliklarda sog‘lom muhitni saqlash, nosog‘lom xo‘jaliklarni sog‘lomlashtirish juda qiyin. Qariyb barcha mamlakatlarda, jumladan respublikamizda ham yirik shoxli mollar brusellyozining oldini olish va kurash maqsadida Brusella abortus 19 shtammidan tayyorlangan tirik-quruq vaksinasi qo‘llanilmoqda. Shu maqsadda, buzoqlar 3-5 oyligida brusellyozga tekshiriladi. Barcha sog‘lom buzoqlar shtamm 19 vaksinasi bilan to‘liq emlanadi va oradan 15-20 kun o‘tgach titr darajasi tekshiriladi, titr bergen mollar 10-12 oy o‘tgach brusellyozga tekshiriladi. Kasallikka musbat reaksiya bergen mollar ajratiladi va go‘shtga topshiriladi, qolganlari shu vaksinaning kichik dozasida qayta emlanadi. Keyingi tekshirishlar har 18 oyda o‘tkaziladi, reaksiya bergen mollar ajratilib yo‘qotiladi, qolganlari yana har 18 oyda tekshiriladi, qaytadan shtamm 19 vaksinasi bilan kichik dozada emlanib kelinadi. Mayda shoxli hayvonlarda 3-4 oylikdan boshlab shtamm 19 vaksinasi to‘liq dozada qo‘llanmaga asosan ishlatilishi darkor.

Mayda shoxli hayvonlarda Brusella melitenzis Rev-1 vaksinasini ham zaruriyat bo‘lganda yo‘riqnomalar asosida ishlatish mumkin.

Epizootik o‘choq ustidan epidemiologik kuzatuv olib boriladi, epizootik va epidemik jarayonning hamma zvenolariga qarshi chora-tadbirlar majmuasi amalga oshiriladi. Epizootik jarayonning jadalligi (hayvonlarning zararlanish darajasi, faolligi, tarqalgan hududi, epidemik o‘choq mavjudligining davomiyligi, hayvonlardagi yashirin tashuvchanlik davri va b.q.) odamlarning kasallanish darajasiga to‘g‘ridan –to‘g‘ri ta’sir etadi. Brusellyozda epidemik jarayon, epizootiyaga bog‘liq, ya’ni hayvonlarda kasallik uchramasa u odamlarda ham uchramaydi. Bundan tashqari, epidemik jarayonning kechishi, aylanib yurgan qo‘zg‘atuvchining turiga ham bog‘liq. Shuning uchun

brusellyozning turli o'choqlarida epizootik va epidemik jarayonning alohida xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Uchta zveno mavjud bo'lsa va o'zaro ta'sir qilib turgan bo'lsa, brusellyoz kasalligining epizootik (epidemik) jarayoni uzoq davom etishi mumkin: infeksiya manbai, yuqish mexanizmi va moyil organizm. Epizootik (epidemik) zanjirning aytib o'tilgan zvenolari nafaqat epizootik (epidemik) jarayonni kelib chiqishiga balki, rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega, ya'ni jarayonning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi (Gromashevskiy L.V.,1965).

Epidemiologik tahlil o'choqda ma'lum vaqt oralig'ida (oy, yarim yil, yil) o'tkazib turiladi va retrospektiv ko'p yillik dinamika o'rganilishi kerak. Buning uchun epidemiologik tahlilning hamma elementlaridan foydalanish zarur: qaerda (joy, hudud), qachon (oy, mavsumiylik), qanday ko'rinishda (epizootik o'choqda, epidemik ko'tarilishda, epidemiya) va kimlar (bemorlar, jinsi, yoshi) kasallandi yoki brusellyozning yuqish xavfi mavjud [44].

JSST mutaxassislarining ta'kidlashicha, hech bir yuqumli kasalliklarning oldini olish va davolash bo'yicha tuzilgan dasturlarni tadbiq etishda, epidemiologik nazoratni samarali amalga oshirmsandan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. V.I.Pokrovskiyning fikricha, epidemiologik nazoratning mohiyati, yuqumli kasalliklarning profilaktikasi va unga qarshi kurash tizimini ma'lumotlar bo'yicha almashinuvlidir.

B.L.Cherkasskiyning fikricha, zoonozlarning epidemiologik nazorati, ko'p qirrali bo'lib, kasallikni dinamik o'rganish, kasallikni faqatgina operativ nazorat qilibgina qolmasdan, qo'zg'atuvchining ekoliyasi, bioliyasi va arealini chuqur tekshirishdir. Epidemiologik nazoratning nazariy va uslubiy negizi bo'lib, hamma strukturaning ko'p omilli xarakteri va epidemik jarayonning funksional elementi hisoblanadi.

Brusellyozda epidemiologik nazoratni, bu infeksiyaning patogenetik xususiyatlarini, epizootik va epidemik holatlarning o'zaro bog'liqligini, aylanib yuruvchi qo'zg'atuvchining turini e'tiborga olgan holda hamda hayvonlar va odamlar o'rtasida u yoki bu darajadagi kasallikni ta'minlovchi ijtimoiy va

ekologik sharoitlarni e'tiborga olgan holda olib borish zarur. Doimo bajariladigan epidemiologik nazorat natijalari, brusellyozga qarshi ratsional, maqsadli chora-tadbirlarni rejalashtirish asosini tashkil etadi. Bundan tashqari ular epidemik va epizootik holatlar tendensiyasi o'zgarishini aniqlash imkonini beradi [41].

Xulosa qilib aytganda, barcha chorva xo'jaliklarini profilaktik tadbirlar asosida bu kasallikdan to'la ozod etish xalq xo'jalik ahamiyatidagi dolzarb masala bo'lib, u chorvachilik iqtisodiyotni mustahkamlash bilan birga, inson salomatligini muhofaza qilish uchun kurashish hamdir.

## **II Bob. MATERIALLAR VA TADQIQOT USLUBLARI**

### **2.1. IZLANISH MATERIALLARI**

Mazkur tadqiqot 2021-2023 yillar mobaynida Samarqand davlat tibbiyot universteti Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasida amalga oshirildi.

Profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlar sifatini, samaradorligini oshirish kasallanishni chuqur tahlil etishga, mazkur tahlil natijalaridan kelib chiqib muayyan shart-sharoitga moslangan va ilmiy asoslangan rejallashtirish hisobiga ta'minlanadi.

Brusellyoz kasalligining epidemik jarayon ko'rinishlarini - kasallanishning dinamikasi, darajasi va tarkibini tahlil etish uchun mazkur infeksiyalar bilan kasallanish haqidagi respublika, Toshkent shahar va Samarqand viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining brusellyoz bilan kasallanishi bo'yicha 2010-2021 yillardagi rasmiy hisobotlari shakli. Brusellyoz epidemik o'choqlarida o'tkazilgan epidemiologik tekshiruv kartalari, kasallik tarixlari ma'lumotlardan foydalanildi. Kasallanishning intensiv ko'rsatgichlarini hisoblab topish uchun tegishli ma'muriy hududlar hokimliklari statistik bo'limlaridan aholining umumiy soni va yosh tarkibi haqidagi ma'lumotlar olindi.

Ilmiy ishni bajarishga majmuaviy tarzda yondoshildi – kasallanish ijtimoiy va ayrim tabiiy sharoitlariga muayyan tafovutlarga ega mintaqalar – Toshkent shahri va Samarqand viloyatlarida qiyoslab o'r ganildi. Tahlil tabiiy, ijtimoiy, maishiy, ishlab chiqarish, kasb-kor, yosh, jins kabi qator omillarni inobatga olgan holda dinamikada o'tkazildi. Brusellyoz kasalligi bilan kasallanmaslik uchun profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda aholining tibbiy sanitariya madaniyati va turmush darajasi katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur bo'ladi. Aholining turli qatlamlari va ayniqsa maktab yoshidagi bolalar o'rta sida sanitariya-targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish. Profilaktik tadbirlarni doimiy

ravishda amalga oshirish uchun keng jamoatchilik va mahalla faollarini jalg'etish.

Shaxsiy gigiena tadbirlariga qat'iy rioya qilish. Zoonoz kasalliklar bo'yicha shifokorlar, o'rta va kichik tibbiyat xodimlarining malakasini doimiy ravishda oshirib borish. Rejali ommaviy tekshiruvlarda brusellyoz bilan kasallangan bemorlarni faol aniqlash va ularni to'liq davolash. Invaziya tarqalishida asosiy rol o'ynaydigan aholi guruhlari orasida bemorlarni to'liq aniqlash.

Birinchi navbatda zararlanish manbaini tugatish kerak. Buning uchun kasallangan hayvonlarga qarshi kurash olib borish lozim. Bu kasallik MShMlarni halokatga olib keladi, ko'p hollarda ularning mahsuldarligi kamayadi va boshqa kasalliklarga nisbatan qarshilik ko'rsatish kuchini pasaytiradi.

Epizootik jarayonning jadalligi (hayvonlarning zararlanish darajasi, faolligi, tarqalgan hududi, epidemik o'choq mavjudligining davomiyligi, hayvonlardagi yashirin tashuvchanlik davri va b.q.) odamlarning kasallanish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Brusellyozda epidemik jarayon epizootiyaga bog'liq, ya'ni hayvonlarda kasallik uchramasa u odamlarda ham uchramaydi. Bundan tashqari, epidemik jarayonning kechishi, aylanib yurgan qo'zg'atuvchining turiga ham bog'liq. Epidemiologik tahlil o'choqda ma'lum vaqt oralig'ida (oy, yarim yil, yil) o'tkazib turiladi va retrospektiv epidemiologik tahlil o'tkazilishi kerak. Buning uchun epidemiologik tahlilning hamma elementlaridan foydalanish zarur: qaerda (joy, hudud), qachon (oy, mavsumiylik), qanday ko'rinishda (epizootik o'choqda, epidemik ko'tarilishda, epidemiya) va kimlar (bemorlar, jinsi, yoshi) kasallandi.

JSST mutaxassislarining ta'kidlashicha, har bir yuqumli kasallikning oldini olish va davolash bo'yicha tuzilgan dasturlarni tadbiq etishda, epidemiologik nazoratni samarali amalga oshirmsandan turib, muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. V.I.Pokrovskiyning (2008) fikricha, epidemiologik

nazoratning mohiyati, yuqumli kasalliklarning profilaktikasi va unga qarshi kurash tizimining ma'lumotlar almashinuvdir.

## 2.2. TADQIQOT USLUBLARI

Ushbu ilmiy tadqiqot ishni bajarilishida epidemiologik, sanitariya-gigienik va statistik usullardan foydalanilgan.

**Epidemiologik usul.** magistrlik ishida O‘zbekiston Respublikasida brusellyoz kasalligi bilan kasallanishning retrospektiv epidemiologik tahlili V. D. Belyakov va hammualliflari tomonidan taklif etilgan uslub yordamida bajarildi (1981). Kasallanish ko‘rsatgichlarini hisoblash eng kichik kvadratlar ixchamlashtirilgan usulida, to‘g‘ri chiziqli  $U_{t_1} = a + vx$  funksiya bo‘yicha hisoblandi.

**Statistik usul.** Olingan natijalarga variatsion statistikaning umume’tirof etilgan uslublari bo‘yicha statistik ishlov berildi. Statistik ishlov berishning dasturiy ta’minati tadqiqot maqsadi va vazifalariga muvofiq tarzda tanlandi. Ko‘rsatgichlarning o‘rtacha xatoligi ( $m$ ) hisoblab chiqildi, taqqoslanayotgan guruuhlar o‘rtasidagi tafovut ishonchliligi Styudent t-mezoni yordamida aniqlandi. Tahlil jarayonida raqamlarga «Microsoft Excel», 3.3.4. talqinidagi EPI-INFO kompyuter dasturlari yordamida ishlov berildi. Tafovutlar  $p < 0,05$  qiymatda ishonchli deb qabul qilindi.

Tahlilning dastlabki yili - 2011 yilda respublikamizda brusellyozning birlamchi tashxisi bilan 422 nafar (intensiv ko‘rsatkich har 100 ming aholiga - 1,5) bemorlar qayd etilgan va tahlil etilayotgan yillar mobaynidagi eng yuqori ko‘rsatgichni 2015 yil 874 nafar (intensiv ko‘rsatkich har 100 ming aholiga - 2,8) bemorlar qayd etilgan (3.1-rasm). 2018 yil O‘zbekiston Respublikasida brusellyoz infeksiyasi bilan kasallanishning pasayish tendensiyasi tomon yuz tutgan palla – jiddiy ijobiy burilishning ibtidosi sifatida e’tirof etilishi mumkin.

2020 yilda respublika bo‘yicha 418 nafar bemor ro‘yxatga olinib (intensiv ko‘rsatkich - 1,2), kasallanish 2015 yilga qaraganda 2,33 barobarga kamaygan.

Kasallanishning bunday darajada kamayganligini va 2021 yil yana ko‘tarilib ketganligining asosiy sabablari Coved-19 pandemiyasi paytida aholining boshqa kasalliklar bo‘yicha shifoxonalarga murojatlarining kamayganligi va sanitariya – gigiena qoidalariga amal qilinganlik holati natijasida kuzatildi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasida 2011-2021 yillar davomida ro‘yxatga olingan brusellyoz kasalligining tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasallanishning ko‘p yillik dinamikasida uzluksiz pasayish tendensiyasi qayd etilmoqda. Tahlil etilayotgan yillar mobaynida respublika miqyosida kasallanishning nomuntazam (epizotik) tebranishlari qayd etilmagan.

### III BOB

#### ShAXSIY IZLANISHLAR NATIJALARI

#### **3.1. O‘zbekistonda brusellyoz kasalligining 2011 – 2021 yillardagi retrospektiv epidemiologik tahlili**

Hozirgi vaqtida zoonoz kasalliklarga shu jumladan brusellyozga qarshi o‘tkazilayotgan chora-tadbirlar ma’lum darajada o‘z samaradorligini namoyon etayotgan bo‘lsa ham uni yetarli darajada deb bo‘lmaydi. Bunday holatni respublikamiz aholisi orasida kasallikning yildan yilga turg‘un holatda qayd etib turilganligi, uning aksariyat hollarda surunkali tus olishi va noxush asoratlarga, nogironlikka olib kelayotganligi yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Epidemiologik qonuniyatlarni ochish va muayyan kasallikka xos epidemik jarayonning xususiyatlarini idrok etish uchun epidemiologik tahlil usullariga murojat etildi.



**3.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2011-2021 yillar mobaynida brusellyoz kasalligining qayd etilish dinamikasi**

Xususan, kasallanishning ko‘p yillik dinamikasini tahlili epidemiik jarayon tendensiyasini, davriylikni va nomuntazam (epizotik) tebranishlarni o‘rganish


imkoniyatlarini beradi. O‘zbekiston Respublikasida 2011-2021 yillar davomida ro‘yxatga olingan brusellyoz kasalligining tahlili shuni ko‘rsatadiki, qayd etilgan bemorlarning umumiy soni 7130 nafardan iborat bo‘lgan.

Tahlilning dastlabki yili - 2011 yilda respublikamizda brusellyozning birlamchi tashxisi bilan 422 nafar (intensiv ko‘rsatkich har 100 ming aholiga - 1,5) bemorlar qayd etilgan va tahlil etilayotgan yillar mobaynidagi eng yuqori ko‘rsatgichni 2015 yil 874 nafar (intensiv ko‘rsatkich har 100 ming aholiga - 2,8) bemorlar qayd etilgan (3.1-rasm). 2018 yil O‘zbekiston Respublikasida brusellyoz infeksiyasi bilan kasallanishning pasayish tendensiyasi tomon yuz tutgan palla – jiddiy ijobiy burilishning ibtidosi sifatida e’tirof etilishi mumkin.

2020 yilda respublika bo‘yicha 418 nafar bemor ro‘yxatga olinib (intensiv ko‘rsatkich - 1,2), kasallanish 2015 yilga qaraganda 2,33 barobarga kamaygan.

Kasallanishning bunday darajada kamayganligini va 2021 yil yana ko‘tarilib ketganligining asosiy sabablari Coved-19 pandemiyasi paytida aholining boshqa kasalliklar bo‘yicha shifoxonalarga murojatlarining kamayganligi va sanitariya – gigiena qoidalariga amal qilinganlik holati natijasida kuzatildi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasida 2011-2021 yillar davomida ro‘yxatga olingan brusellyoz kasalligining tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasallanishning ko‘p yillik dinamikasida uzlusiz pasayish tendensiyasi qayd etilmoqda. Tahlil etilayotgan yillar mobaynida respublika miqyosida kasallanishning nomuntazam (epizotik) tebranishlari qayd etilmagan.



**3.2-rasm O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari bo‘yicha brusellyoz kasalligining 2011-2021 yillar mobaynida qayd etilishi o‘rtacha darajalari 100.000 aholiga nisbatan**

O‘zbekiston Respublikasining turli viloyatlarida brusellyoz bilan kasallanish ko‘rsatkichlarini mutloq sonlarda va 100 000 aholiga nisbatan tarqalganligini tahlil qilganimizda (3.1.jadval) Respublikamizning turli viloyatlarida bir tekis tarqalmaganligi aniqlandi.

### 3.1.jadval.

#### O‘zbekiston Respublikasida 2011-2021 yillar mobaynida brusellyoz kasalligining viloyatlar bo‘yicha o‘rtacha qayd etilish ko‘rsatkichlari

t/r	Ma’muriy Hududlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil	
		m.r	i.k.	m.r	i.k.	m.r	m.r	m.r	i.k.	m.r	i.k.	m.r	i.k.
1.	Toshkent sh.	5	0,3	1	0,1	2	0,1	0	0	4	0,2	4	0,2
2.	Andijon vil.	0	0	0	0	0	0	0	0	6	0,2	7	0,2
3.	Samarqand vil.	78	4,8	91	5,4	71	4,1	106	5,9	54	3	72	4
4.	Jizax vil.	82	7,2	89	7,6	100	8,2	124	9,9	117	9,3	109	8,5
5.	Qashqadaryo v.	81	3	59	2,1	58	2	91	3,1	114	3,8	136	4,5
6.	Navoiy vil.	59	6,8	52	5,9	29	3,2	118	12,9	98	10,6	104	11,2
7.	Namangan vil.	3	0,1	2	0,1	5	0,2	7	0,3	0	0	9	0,3
8.	Samarqand v.	41	1,3	21	0,6	39	1,1	49	1,4	61	1,7	53	1,5
9.	Surxondaryo v.	16	0,8	19	0,9	217	9,5	138	5,9	297	12,5	260	10,8
10.	Sirdaryo vil.	16	2,2	4	0,5	15	2	31	4	70	8,9	52	6,6
11.	Toshkent vil.	18	0,7	9	0,3	16	0,6	22	0,8	29	1	24	0,9
12.	Farg‘ona vil.	3	0,1	0	0	2	0,1	2	0,1	5	0,1	0	0
13.	Xorazm vil.	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
14.	Qoraq. Res.	20	0,9	15	0,7	18	0,8	11	0,5	19	0,8	14	0,6
JAMI		<b>422</b>	<b>1,5</b>	<b>362</b>	<b>1,2</b>	<b>572</b>	<b>1,9</b>	<b>699</b>	<b>2,3</b>	<b>874</b>	<b>2,8</b>	<b>844</b>	<b>2,7</b>

t/r	Ma’muriy Hududlar	2017 yil		2018 yil		2019 yil		2020 yil		2021 yil		jami	
		m.r	i.k.	m.r	i.k.	m.r	m.r	m.r	i.k.	m.r	i.k.	m.r	i.k.
1.	Toshkent sh.	5	0,3	0	0	4	0,2	0	0	0	0	25	0,13
2.	Andijon vil.	11	0,4	10	0,3	12	0,4	3	0,1	2	0,1	51	0,15
3.	Samarqand vil.	105	5,6	84	4,5	72	3,7	40	2	67	3,2	840	4,2
4.	Jizax vil.	106	8	101	7,5	100	7,4	50	3,6	50	3,5	1028	7,33
5.	Qashqadaryo v.	135	4,3	116	3,6	178	5,5	173	5,2	99	2,9	1240	3,64
6.	Navoiy vil.	76	7,9	75	7,8	37	3,9	35	3,6	42	3,7	725	7,05
7.	Namangan v.	11	0,4	26	1	10	0,4	0	0	10	0,3	83	0,28
8.	Samarqand v.	90	2,4	94	2,5	90	2,4	44	1,1	101	2,5	683	1,68
9.	Surxondaryo v.	242	9,6	220	8,7	142	5,5	50	1,9	118	4,3	1719	6,4
10.	Sirdaryo vil.	37	4,5	24	2,9	52	6,2	12	1,4	39	4,5	352	3,97
11.	Toshkent vil.	19	0,7	23	0,8	24	0,8	0	0	4	0,1	188	0,61
12.	Farg‘ona vil.	6	0,2	5	0,1	8	0,2	3	0,1	6	0,2	40	0,11
13.	Xorazm vil.	0	0	0	0	0	0	0	0	1	0	1	0
14.	Qoraq. Res.	15	0,6	10	0,4	16	0,6	8	0,3	9	0,3	155	0,59
JAMI		<b>858</b>	<b>2,6</b>	<b>788</b>	<b>2,4</b>	<b>745</b>	<b>2,2</b>	<b>418</b>	<b>1,2</b>	<b>548</b>	<b>1,6</b>	7130	2,04

Taqdim etilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, respublikamizning Jizzax, Samarqand, Sirdaryo viloyatlarida eng ko'p, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlarida nisbatan kamroq darajada, Xorazm, Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlarida esa eng kam darajada kasallanish ko'rsatkichlari qayd etilganligi aniqlandi (3.1.jadval).

Shunday qilib, oxirgi 11 yilda (2011-2021 yillarda) respublika ma'muriy hududlarida brusellyoz bilan kasallanish holatlarini retrospektiv tahlili shundan dalolat beradiki, aytib o'tilgan kasallanish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan hududlar asosli ravishda faol epizootik o'choqda potensial mavjudligini belgilaydi. Yuqoridagi tahlil natijasi yana shuni ko'rsatadiki respublikaning barcha hududlarida ushbu infeksiya hanuzgacha uchrab turganligi va bu o'z vaqtida, kechiktirib bo'lmaydigan profilaktik chora-tadbirlarini tashkillashtirish zarurligidan dalolat beradi.


Yuqumli kasallikkarni oldini olish, profilaktik va epidemiyaga qarshi chora – tadbirlarni ishlab chiqish, ya'ni kasallik manbaiga, yuqish yo'llariga, moil jamoaga qarshi ishlarni amalga oshirishda kasallikning aholi guruhlari orasida tarqalganligini epidemiologik ahamiyati yuqoridir. Shuning uchun 2011-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida bolalarning brusellyoz bilan kasallanish holatlarini aniqlash maqsadida retrospektiv tahlil o'tkazildi 3.2-jadval.

### 3.2-jadval

**O‘zbekiston Respublikasida 2011-2021 yillar mobaynida brusellyoz  
kasalligining 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida qayd etilish  
ko‘rsatkichlari**

t/r	Yillar	Jami	Kattalar		Bolalar	
			mutloq sonda	% (M ±m)	mutloq sonda	% (M ±m)
1.	2011	422	393	93,1 ±1,2	29	6,9±1,2
2.	2012	362	345	95,3 ±1,2	17	4,7±1,2
3.	2013	572	542	91,7 ±1,2	30	8,3 ±1,2
4.	2014	699	669	88,2 ±1,5	30	11,8 ±1,5
5.	2015	874	783	90,4 ±1,2	91	9,6 ±1,2
6.	2016	844	764	91,0 ±1,3	80	9,0 ±1,3
7.	2017	858	782	91,8 ±1,4	76	8,2 ±1,4
8.	2018	788	733	91,5 ±1,4	55	8,5 ±1,4
9.	2019	745	672	93,7 ±1,3	73	6,3±1,3
10.	2020	418	378	91,4 ±1,5	40	8,6±1,3
11.	2021	548	502	91,8 ±1,4	46	8,2 ±1,4
<b>JAMI</b>		<b>7130</b>	<b>6563</b>	<b>91,6 ±0,3</b>	<b>567</b>	<b>8,4±0,3</b>

Tahlil qilingan 2011-2021 yillarda bolalar orasida jami 567 nafar kasallanganlar ro‘yxatga olingan, bu umumiy qayd etilgan 7130 nafar kasallanganlarning 7,95% ni tashkil etadi (3.2-rasm). Brusellyoz kasalligining bolalar o‘rtasida eng yuqori ko‘rsatkichi 2015-2016 yillarda qayd etilgan bo‘lib, 2015 yil umumiy qayd qilinganlar soni 874 nafarni tashkil etib, ulardan 91 nafari bolalardir (3.2-jadval), 2016 yil umumiy qayd qilinganlar soni 844 nafar, bolalar esa 80 nafarni tashkil etgan.



**3.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2011-2021 yillar mobaynida jami  
brusellyoz bilan kasallanganlarning bolalar va kattalar orasida  
taqsimlanishi % larda**

Bolalar o‘rtasida 2020-2021 yillarda brusellyoz infeksiyasi bilan kasallanishning kamayishi kuzatilgan. (3.2-rasm).

Brusellyozning bolalar o‘rtasida qayd qilinishi respublikada infeksiyaning ko‘p tarqalganligidan dalolat beradi. Bemorning oila a’zolari yuqish xavfi yuqori guruhga kiradi.

### 3.3-jadval

**2011-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida brusellyoz bilan kasallanganlarning qishloq va shahar aholisi o‘rtasidagi taqsimlanishini mutloq sonda va foizlardagi ko‘rsatkichi.**

t/r	Yillar	Jami	Qishloq aholisi o‘rtasida		Shahar aholisi o‘rtasida	
			mutloq sonda	% (M ±m)	mutloq sonda	% (M ±m)
1.	2011	422	351	83,2±1,8	71	16,8±1,8
2.	2012	362	304	84,0±1,6	58	16,0±1,6
3.	2013	572	498	75,7±1,8	74	24,3±1,8
4.	2014	699	498	69,5±2,1	201	30,5±2,1
5.	2015	874	766	79,4±1,7	108	20,6±1,7
6.	2016	844	765	82,1±1,8	79	17,9±1,8
7.	2017	858	782	85,6±1,8	76	14,4±1,8
8.	2018	788	714	77,1±2,1	74	22,9±2,1
9.	2019	745	665	84,9 ±2,0	80	15,1±2,0
10.	2020	418	383	79,7±1,9	35	20,3±1,9
11.	2021	548	488	79,4±1,7	60	20,6±1,7
<b>JAMI</b>		<b>7130</b>	<b>6214</b>	<b>87,15±0,3</b>	<b>916</b>	<b>12,8±0,4</b>

O‘zbekiston Respublikasida brusellyoz infeksiyasi bilan kasallanganlarning 2011-2021 yillarda qishloq va shahar aholisining kasallanishi qanday darajada ekanligini aniqlash maqsadida, retrospektiv tahlil qilib chiqildi. Aytib o‘tilgan yillarda jami 7130 nafar kasallanganlar qayd etilgan bo‘lib (3.3-jadval), shundan 6214 ( $87,15\pm0,3$ ) holatlarda qishloq aholisi, 916 ( $12,8\pm0,4$ ) holatlarda esa shahar aholisi orasida qayd etilganligi aniqlandi 3.3-jadval.

Yuqorida olingan yillardagi kasallanishlar va ularni qishloq va shahar aholisi orasidagi qayd etilish sonlari va foizlarida aniq ko‘rinib turibdiki barcha yillarda respublikamizda brusellyoz bilan kasallanganlarning asosiy qismi qishloq aholisi orasida uchrashi aniqlandi 3.3-rasm.



### **3.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2011-2021 yillardagi jami kasallanganlarning qishloq va shahar aholisi o‘rtasidagi taqsimlanishi.**

2011-2021 yillardagi jami kasallanganlarning qishloq va shahar aholisi o‘rtasidagi farqi aniq ko‘rinib turibdi, qishloq aholisi- $87,15\%$  ni, shahar aholisi- $12,85\%$  ni tashkil etmoqda (3.3-rasm), bu holat asosli ravishda epizootik potensialni mavjudligini va qishloq xo‘jaligi hayvonlari orasida o‘z vaqtida va

kechiktirib bo‘lmaydigan profilaktika chora-tadbirlarini tashkillashtirish zarurligini taqozo qiladi.

Tadqiqotning yakuniy maqsadiga erishish uchun brusellyoz kasalligining epidemiologik xususiyatlari o‘rganilayotgan aholining atroficha ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish, sanitar va demografik tavsifini o‘tkazish zarurdir.

### **Toshkent shahrining iqlimi-jug‘rofiy va ijtimoiy-demografik ta’rifi.**

Toshkent shahri dengiz sathidan 440-480 m balandlikda, 41020 shimoliy kenglik, 69010 sharqiy uzunlikda joylashgan. Toshkent shahri hududi 300 km<sup>2</sup> maydonini egallaydi. Bu yerda iqlim iliq va mo‘tadil quruq. Yanvar oyining o‘rtacha harorati -1,1<sup>0</sup>S, qishning davomiyligi 40 kun. Iyul oyining o‘rtacha harorati +32<sup>0</sup>S, yog‘ingarchilik yog‘ishi yiliga 360-390 mm. Shaharda 100 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi, ularning barchasi Toshkent shahrining teng huquqli fuqorolaridir. Aholi soni bo‘yicha shahar MDH davlatlari orasida 4 o‘rinni (Moskva, Kiev, Sankt-Peterburgdan keyin) va O‘rta Osiyoda 1 o‘rinni egallaydi. Toshkent shahri hududi 11 ta tumanga bo‘lingan. Bu Uchtepa, Bektemir, Mirzo Ulug‘bek, Mirobod, Sirg‘ali, Sobir Rahimov, Chilonzor, Shayxontoxur, Yunusobod, Yakkasaroy va Xamza tumanlaridir. ULARNING HAR BIRINI SHAHAR XOKIMIYATI BO‘LIMLARI BOSHQARADI. Bundan tashqari 445 dan ortiq fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish mahalla qo‘mitalari mavjud.

Qadimdan Chirchiq yonbag‘rining sug‘oriladigan maydonini kengaytirish uchun uning yuqori qismidan ko‘plab kanallar qazilgan. Bu kanallar hozirgi kunda ham mavjud bo‘lib, ular zamonaviy shahar orqali oqib o‘tadi va tabiiy irmoqlarga ega bo‘lib, aslida bu sug‘orish qurilmalari odamlar tomonidan 2-2,5 ming yil avval qazilgan. Ja’mi bo‘lib, Toshkent orqali 12 ta kanal va 16 ta katta ariqlar oqib o‘tadi.

Toshkent, respublikaning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy markazidir. Bu yerda respublika yalpi mahsulotlarning 20% ishlab chiqariladi, 300 dan ortiq katta va o‘rta quvvatdagi korxonalar mavjud. Toshkent qadimdan savdo va madaniyat almashuvi yo‘lining kesishuvi bo‘lib, hozirgi kunda ilm va

fan markazi xisoblanadi, hamda unda respublika iqtisodiyotining ko‘pgina sohalari jamlangan.

Bugungi kunda O‘zbekiston poytaxti tijorat va xizmat ko‘rsatish tizimi, sayyohlik va ko‘ngil ochar tadbirlar markazi hisoblanadi.

Shaharda 2 ta vokzal: Shimoliy (asosiy) va Janubiy vokzal xizmat ko‘rsatadi. Shahar respublikaning asosiy “Havo darvozasi” hisoblanadi. Toshkent aeroporti turli davlatlarning zamonaviy samolyotlarini qabul qila oladi. Uning o‘tkazish qudrati soatiga 900 yo‘lovchi, tig‘iz paytlarida esa 1200 yo‘lovchini tashkil etadi. 24 ta halqaro, 12 ta mahalliy, 23 ta MDH shaharlari bo‘yicha aviareyslar mavjud.

**Samarqand viloyatining iqlimi-jug‘rofiy va ijtimoiy-demografik ta’rifi.** **Samarqand viloyati** O‘zbekistonning janubiy-g‘arbida joylashgan. Qizilqum cho‘li Samarqand viloyati hududining katta qismini egallaydi. Viloyatning umumiyligi maydoni – 40320 kvadrat kilometr. Viloyat tubkontinental, quruqiqlimga ega. Viloyat aholisi taxminan 1707,6 ming kishiga teng, shundan qariyb 68 foizi qishloq joylarida, 32 foizi shaharlarda yashaydi. Viloyat 11 ma’muriy tumanlardan iborat. Viloyatning ma’muriy markazi – Samarqand shahri bo‘lib, uning aholisi taxminan 300000 kishidir. Viloyatning boshqa yirik shaharlari – G‘ijduvon, Romitan va Kogondir.

Qadimiy Buyuk Ipak yo‘li Samarqand viloyati orqali o‘tgan va bu Sharif shahar ilm-fan, hunarmandchilik, savdo va Islom dini madaniyatining yirik markazlaridan biri bo‘lgan. Samarqand 2500 yillikdan ortiq boy tarixga ega.

Samarqand viloyati hududida juda ko‘plab betakror qadimiy obidalar saqlanib qolgan bo‘lib, mustaqillik yillarida ular obod va go‘zal ziyyaratgohlarga aylantirilgan. Anashunday tarixiy obidalarning 2000 dan ortig‘i YuNESKO tashkilotining muhofazasiga olingan. Viloyatning boy madaniy me’rosimining yillar davomida butun dunyoni o‘ziga rom etib kelgan. Viloyatda 20 dan ortiq sayyohlik kompaniyalari hamda 50 dan ortiq zamonaviy mehmonxonalar faoliyat olib bormoqda.

Samarqand shahri qorako'l terisini qayta ishslash, duradgorlik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, misgarlik, nafis san'at namunalarini yaratish, shuningdek rivojlangan oziq-ovqat sanoatiga ega.

Eng asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari – paxta, bug'doy, qorako'l teri va tabiiy ipakdir. Qishloq xo'jaligi faoliyati viloyatning faqat sug'oriladigan yerlarida olib boriladi.

Samarqand shahridagi xalqaro aeroport, zamonaviy kommunikatsiya tizimlari, xalqaro darajadagi mehmonxonalarlardagi qulayliklar, go'zal va betakror tarixiy obidalar, mehmon do'st, soddadil va samimiylar insonlar sayyoohlar qalbida abadiy muhrlanib qoladi.

**Toshkent shahri va Samarqand viloyatida 2003-2012 yillarda qayd etilgan brusellyoz bilan kasallanish holatlari retrospektiv tahlil qilindi.** Tahlil qilingan yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami 7130 nafar kasallanganlar qayd etilgan bo'lib, shundan 155 nafari Toshkent shahrida, 840 nafari Samarqand viloyatida qayd etilgan (3.4-jadval).


**3.4-jadval**

**2011-2021 yillarda Toshkent shahri va Samarqand viloyatida qayd etilgan  
brusellyoz kasalligi to‘g‘risida ma’lumot**

	yillar	Toshkent sh.		Samarqand vil.	
		bemorlar soni		bemorlar soni	
		m.r.	i.k.	m.r.	i.k.
1.	2011 yil	20	0,9	78	4,8
2.	2012 yil	15	0,7	91	5,4
3.	2013 yil	<b>18</b>	0,8	<b>71</b>	4,1
4.	2014 yil	<b>11</b>	0,5	<b>106</b>	5,9
5.	2015 yil	19	0,8	54	3,0
6.	2016 yil	14	0,6	<b>72</b>	4,
7.	2017 yil	<b>15</b>	0,6	105	5,6
8.	2018 yil	10	0,5	84	4,5
9.	2019 yil	16	0,9	72	3,7
10.	2020 yil	8	0,3	40	1,9
11.	2021 yil	<b>9</b>	0,3	<b>67</b>	3,2
<hr/>					
<b>Jami-995</b>		<b>155</b>		<b>840</b>	

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shuni kuzatish mumkinki, brusellyoz bilan kasallanganlar soni Samarqand viloyatida, Toshkent shahri aholisiga nisbatan 5,4 barobar ko'roqdir.


2011 – 2021 yillardagi kasalliklarni taxlil qilganimizda Toshkent shahrida eng ko'p kasalliklar 2011 yil – 20 nafarni, 2013 yil – 18 nafarni, 2015 yil – 19 nafarni tashkil etgan. Samarqand viloyatida esa 2014 yil – 106 nafarni, 2017 yil – 105 nafarni, 2012 yil esa 91 nafarni tashkil etgan 3.4-jadval.



**3.4-rasm. 2011-2021 yillarda Toshkent shahri va Samarqand viloyatida qayd qilingan brusellez kasalligining tarqalganligi (intensiv ko'rsatkichlarda, 100 ming aholiga nisbatan)**

3.4-rasmdan ko'rinish turibdiki 2011-2021 yillardagi kasallik ko'rsatkichlarini 100000 aholiga nisbatan intensiv ko'rsatkichlarda taxlil qilganimizda ham umumiylasallanganlarning asosiy qismi Samarqand viloyatida uchrashini kuzatish mumkin. Ayniqsa 2014 yil-5,9 ni, 2017 yil-5,6 kasallik ko'rsatkichlarni tashkil etgan. Shu yillarda Toshkent shahrida 2014 yil-0,5 ni, 2017 yil 0,6 ni tashkil etmoqda. Kasallik ko'rsatkichining Samarqand


viloyatida yuqoriligi asosan aholining asosiy qismi qishloq sharoitida chorvachilik bilan shug‘ullanishi va qishloq sharoitida aholining kasallik qo‘zg‘atuvchisi manbai bilan muloqotda bo‘lish ehtimoli shahar aholisiga nisbatan yuqoriligidadir. Bundan tashqari Samarqand viloyati qoraqo‘ychilik bilan shug‘ullanuvchi fermer ho‘jaliklarini soni ko‘p, fermer ho‘jaliklari respublikamizga jun, teri va go‘sht mahsulotlarini yetkazib beradi. Shularni hisobiga Toshkent shahriga nisbatan Samarqand viloyatida kasallanishlar soni ko‘p.



**3.6-rasm. Toshkent shahar va tumanlari bo‘yicha 2021 yil brusellyoz kasalligining tahlili**

Toshkent shahar va tumanlaridagi 2021 yil brusellyoz kasalligini tarqalganligini taxlil qilganimizda (3.6-rasm) eng yuqori kasallanganlar soni: Shayxontoxur tumanida – 4 nafarni, Mirzo Ulug‘bek tumanida – 3 nafarni


tashkil etdi. Kasallanganlar soni o‘rtacha yuqori bo‘lgan tumanlar: Uch tepa, Xamza, Sergili. Kasallanganlar yoki umuman kasal bo‘lmagan tumanlar: Mirobod, Chilonzor, Bektemir, Olmazor, Yakkasaroy, Yunusobod tumanlarida aniqlandi.



**3.7-rasm. Buxoro viloyatining shahar va tumanlarida 2021 yil brusellyoz kasalligining tahlili**

Samarqand viloyatining shahar va tumanlaridagi 2021 yil 100000 aholiga nisbatan brusellyoz kasalligini tarqalganligini taxlil qilganimizda (3.7-rasm) eng yuqori kasallanish ko‘rsatkichlari: Kogon tumanida-22 ni, Jondor tumanida-

13,2 ni, Shofirkon tumanida-11,1 ni tashkil etdi. Kasallik ko'rsatkichi o'rtacha yuqori bo'lgan tumanlar: Romitan, Qorako'l, Qorovul-bozor. Kasallanishlar past yoki umuman bo'lmagan tumanlar: Samarqand shahri, Kogon shahri, Vobkent tumanlarida aniqlandi. Kasallik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan va o'rtacha yuqori bo'lgan tumanlardagi kasallanishlarning sabablari shu tuman aholisining asosiy qismi chorva mollari va qo'y boqish va boshqa chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan ishlar bilan shug'ullanishi va mexnat jarayonida sanitariya-gigiena qoidalariga to'liq amal qilmasliklari, kasallik manbai bo'lgan kasallangan chorva mollari va qo'ylar bilan muloqotda bo'lganda yuqish ehtimolining ko'pligi sabab bo'lmoqda. Shahar aholisi o'rtasida kasallikning kamligi yoki umuman bo'lmasligi bu aholining qishloq xo'jaligi ishlari va chorvachilik bilan shug'ullanmasligi, kasallik manbasi bilan muloqotda bo'lmaslidadir.



### 3.8-rasm. Samarqand viloyati va Toshkent shahrida 2021 yil brusellyoz kasalligining oylar bo'yicha tarqalganligi mutloq sonlarda

2021 yil Samarqand viloyati va Toshkent shahridagi brusellyoz bilan kasallanganlarni oyma-oy tahlil qilganimizda, Toshkent shahrida yanvar oyidan may oyigacha va dekabr oylarida kasallanganlar bo'lmagan, iyun, sentabr va

noyabr oylarida 3-4 ta kasallanganlar aniqlangan. Samarqand viloyatida esa yanvar oyidan boshqa hamma oylarda kasallanganlar aniqlangan, kasallanganlar soni fevral oyidan boshlab iyun oyigacha ko‘tarilib borgan ya’ni 4 tadan 17 tagacha, qolgan oylarda kasallanganlar soni kamaygan 7 tadan 2 tagacha (3.8-rasm). Yuqoridagi ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki Samarqand viloyatida kasallanganlar soni oylar bo‘yicha taxlil qilinganda ham Toshkent shahriga nisbatan yuqori bo‘lishi qayd qilindi. Ayniqsa Samarqand viloyatida aprel, may, iyun, iyul oylarida kasallanganlarning sonini ko‘pligi shu oylarda chorva mollari va qo‘ylarni tug‘ishi va jun olinishi bilan bog‘liqdir.

### **3.3. Brusellyoz bilan kasallanganlarni aholi guruhlari va kasbga bog‘liq kasallanishlarni tahlili.**


Brusellyoz bilan kasallanishni oldini olishda va profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, kasallikni turli aholi guruhlari orasida tarqalganlik darajasini aniqlash juda muhim ahamiyatga ega.

2011-2021 yillardagi Toshkent shahri va Samarqand viloyatidagi kasallanishlarni erkak va ayollar o‘rtasida o‘tkazilgan tahlil natijasi shuni ko‘rsatadiki (3.5-jadval) Toshkent shahrida kasalliklar erkak va ayollar o‘rtasidagi yillar bo‘yicha farqi unchalik katta farq qilmaydi.

#### **3.5-jadval.**

#### **Toshkent shahri va Samarqand viloyatida 2011 yildan 2021 yilgacha bo‘lgan umumiylashtirish erkaklar va ayollar o‘rtasidagi taqsimlanishi**

	<b>Toshkent shahri</b>			<b>Samarqand viloyati</b>		
	<b>jami</b>	<b>erkak</b>	<b>ayol</b>	<b>jami</b>	<b>Erkak</b>	<b>Ayol</b>
<b>Foiz-larda</b>	<b>100</b>	<b>49,81%</b>	<b>50,19%</b>	<b>100</b>	<b>81,09%</b>	<b>18,91%</b>



### 3.9-rasm. Toshkent shahri va Samarqand viloyatida 2011-2021 yillardagi kasallanishning erkaklar va ayollar o‘rtasidagi taqsimlanishi

Toshkent shaxrida jami 11 yillik kasallanishni erkak va ayollar o‘rtasida ulushini solishtiradigan bo‘lsak 50% erkaklar, 50% ayollar kasallanganligini ko‘rshimiz mumkin (3.9-rasm).

Samarqand viloyatidagi kasallanish ko‘rsatkichlari Toshkent shahridan ancha farq qiladi, Samarqand viloyatida tekshirilgan barcha yillarda erkaklarning foiz ulushi ayollarni foiz ulushiga nisbatan 3-5 barobar yuqoriligi aniqlandi. Samarqand viloyatidagi jami 11 yillikdagi 840 ta kasallanganlarning 81% ni erkaklar, qolgan 19% ni ayollar tashkil qilishi aniqlandi. Samarqand viloyatidagi erkaklar orasida kasallikning ayollarga nisbatan yuqori darajada uchrashining sabablari, erkaklar asosan qo‘ylarni junini olish, so‘yish, terisini shilish, bola tashlaganda uni olib ko‘mish va boshqa ishlar bilan ayollarga nisbatan ko‘proq shug‘ullanadilar.

2021 yil Samarqand viloyatida jami 67 ta kasallanganlar aniqlangan. Jami kasallanganlarning kasallik manbai bo‘yicha taxlil qilganimizda eng ko‘p kasallik manbai MShH 31-tani, YShH va MShH 19-tani, YShH 6-tani va qolgan 11-ta xolatda kasallik manbai aniqlanmagan.

